

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
O`ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI
ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI**

**“Himoyaga tavsiya etilsin”
O‘zbek filologiyasi fakulteti dekani
_____ f.f.n. I.Xudoynazarov
“_____” _____ 2015**

**“5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)” ta’lim yo‘nalishi
IV-bosqich 44-guruh talabasi**

**Rasulova Madinaning
“Mustaqillik davri o‘zbek she’riyatida g‘azal janri
taraqqiyoti”**

mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bitiruvchi talaba _____M.Rasulova

Ilmiy rahbar _____ f.f.n. Sh. Karomova

**“Himoyaga tavsiya etilsin”
Adabiyotshunoslik kafedrası
mudiri _____ f.f.n. N.Shodmonov
“_____” _____ 2015**

Qarshi 2015

MUNDARIJA

Kirish.....3-5 -bet

I.bob Mumtoz poetik shakl va zamonaviy ifoda usuli

1.1. Gʻazal janri tarixi.....6-10-bet

1.2. Yangi davr sheʼriyatida gʻazalchilik anʼanalari.....11-31- bet

II. Bob Yangi davr gʻazalchiligi

2.1. Gʻazalnavislik anʼanalari A.Oripov ijodi.....32-40- bet

2.2. 90 yillar oʻzbek sheʼriyatida gʻazal janri taraqqiyoti.....41-50- bet.

Xulosa.....51-52- bet

Adabiyotlar ruyxati..... 53-54- bet

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Muayyan janr taqdiri, uning yaratuvchisi, janr yaratilayotgan davr, davrning mafkuraviy aqidalariga qaysidir darajada bog‘liq bo‘ladi. Shu bois ba’zi janrlar adabiy jarayonda faol bo‘lgan bir paytda boshqalari kam iste’molda bo‘ladi. Lekin shunday janrlar ham borki, ular ijodkor tomonidan, u yashayotgan davridan qat’iy nazar, doimo iste’molda bo‘ladi. Albatta, bu iste’mol har bir taraqqiyot pallasida bir xilda kechavermaydi. O‘zi yashayotgan davrga xos bo‘lgan bir qator o‘zgarishlarga uchraydi.

Ma’lumki, XX asrning 30-50 yillarida o‘zbek she’riyatining ko‘p asrlik she’r sistemasi aruzga biroz kamsitilganday munosabatda bo‘lindi. Aruz zamon, davr ruhini, zamonaviy lirik qahramon olamini yoritishga ojizlik qiladi, degan fikrlar aytiladi. Bir tomondan, bu gap haqday tuyuladi. Chunki Oktabr to‘ntarishi, fuqarolar urushi, kolxozlashtirish davrlarida tilimizga xorijdan, xususan, Yevropadan shunchalar ko‘p yangi siyosiy so‘zlar kirib keldiki, ular mumtoz adabiyotimizning nafosatini bera olmas edi. Ular siyosiylashgan so‘zlar edi. Biroq 60-yillarga kelib aruzga munosabat o‘zgara boshladi. Uning o‘zbek adabiyoti, she’riyatidagi o‘rni tiklanibgina qolmay, E.Vohidov, J.Kamol A.Oripov, J.Jabborov kabi shoirlar ijodida yuksak bosqichga ko‘tarildi. 90-yillarga kelib garchand she’riyatimizda she’riy janrlar soni kengaygan bo‘lsada, ammo aruzga bo‘lgan munosabat ham to‘xtab qolmadi. Bu davrda g‘azalchilik an‘analari davom etganligini kuzatish, ilmiy tahlil qilish ishning dolzarbligini belgilaydi.

Ishning maqsadi va vazifalari: Aruzning zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi nafosati, o‘ziga xos badiiy-estetik ahamiyatini namoyish qilishda ushbu shoirlarning ijodini kuzatish, tahlil qilish ishning asosiy maqsadi hisoblanadi. Bu maqsadni amalga oshirishda biz oldimizga qo‘yidagilarni vazifa qilib belgiladik:

Muayyan janr taqdiri, uning yaratuvchisi, janr yaratilayotgan davr, davrning mafkuraviy aqidalariga qaysidir darajada bog‘liqligini kuzatish;

-XX asrning 30-70-yillarida o'zbek she'riyatining ko'p asrlik she'r sistemasi aruzga bo'lgan munosabat;

-Yangilangan g'azalchilik davrining eng faol ijodkorlarining g'azalchilikdagi mahoratini kuzatish;

-Lirikada g'azalning asosiy mohiyati va an'anaviy jozibasi saqlanganligini tahlil qilish;

-90-yillar o'zbek she'riyatida g'azal janriga munosabat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi; Aruz bugungi davr she'riyatida yetakchi o'rinni egallamasa ham, kitobxon ehtiyojiga javob bera oladigan, iste'dodli shoirlar tomonidan qo'llanilayotgan adabiy vosita ekanligini E.Vohidov, A.Oripov, J.Jabborov, S.Sayyid ijodlari misolida o'rganilishi ishning yangiligini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi: O'zbek she'riyatida aruz she'riy tizimiga, g'azal janri taraqqiyoti xususida adabiyotshunos olimlarimizdan I.Sulton, T.Boboyev, U.To'ychiyev, A.Hayitmetov, N.Karimov, B.To'hliyev, B.Qodirov, R.Orzibekovlar tomonidan ilmiy nazariy fikrlar bildirilgan.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati: Ushbu ish xulosalari o'zbek she'riyatining janrlar taraqqiyotiga xos izlanishlar, zamonaviy she'riyatda g'azal janrining taraqqiyot xususiyatlarini kuzatish va bu davr she'riyatini baholashning qoidalarini ishlab chiqishda katta ilmiy ahamiyatga egadir. Ishning qoida va xulosalari XX asr o'zbek she'riyatining taraqqiyotida g'azal janrining umumiy manzarasini ilmiy tasavvur qilish va sharhlashga yordam beradi.

Ish kollej, litsey talabalari va maktablar uchun zamonaviy shoirlar ijodiga tegishli maxsus kurs va seminarlar o'tkazishda foydalanishda, ayni paytda, hozirgi o'zbek she'riyatidagi janriy va mavzuviy izlanishlar bo'yicha talabalarga ixtisoslik kurslari olib borishda yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi va uslublari: Biz ushbu bitiruv malakaviy ishimizda Prezidentimiz I.A.Karimovning ma'naviyat va adabiyot haqidagi fikrlariga, shuningdek adib A.Qahhor, I.Sulton, T.Boboyev, U.To'ychiyev B.Qodirov, R.Orzibekov kabi olimlarning ilmiy-nazariy xulosalariga tayandik.

Tadqiqot ob'yekti va predmeti: Ushbu bitiruv malakaviy ishning predmeti sifatida E.Vohidov, A.Oripov, J.Jabborov S.Sayyidlarning turli yillarda yaratilgan g'azallarini o'zida jamlagan she'riy to'plamlari tanlandi.

Ishning tuzilishi va tarkibi: Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish (tushuntirish) qismi va to'rt faslni o'z ichiga oluvchi asosiy ikki qismdan tashqari, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning hajmi 54 betdan iborat.

I.Bob Mumtoz poetik shakl va zamonaviy ifoda usuli

1.1 Gʻazal janri tarixi

Xususan, gʻazal janrining yangi davrdagi taraqqiyot yoʻli haqida gapirishdan avval “janr” atamasiga nazar tashlasak maqsadga muvofiq boʻladi, deb oʻylaymiz. “Janr -adabiy janr, adabiy asarlarning tarixan shakllanuvchi tipi, muayyan davr milliy yoki jahon adabiyotida umumiy xususiyatlari bilan turlicha koʻlamdagi guruhlarini tashkil qiluvchi asarlarni anglatuvchi tushuncha”. □ Taʼrifdagi janrning muayyan davr milliy yoki jahon adabiyotida umumiy xususiyatlarga ega boʻlgan “turlicha koʻlamdagi guruhlar”ga “gʻazal” janri ham kiradi. Bu janrning rivojida quyidagi uch omil uning har bir millat, davr doirasidagi oʻziga xos jihatlari tayin etadi:

- 1) muayyan tarixiy davr;
- 2) gʻazalning milliy xususiyatlari;
- 3) umumsharq adabiyotidagi oʻziga xosliklari

Demakki, har bir janrning yaratilishi uchun qulay tarixiy sharoit, ehtiyoj va badiiy mushohada koʻlami mavjud boʻlishi darkor. Bu koʻrsatkichlar bir nuqtaga birlashgani holda muayyan bir janr dunyoga keladi. Albatta, bularning barini milliy badiiy tafakkur mezonlari tartibga soladi, nazorat qilib boradi. Gʻazal X-XI asrlarga kelib turkiy adabiyotda ham qoʻllana boshladi. “Adabiyotshunoslik terminlarining izohli lugʻati”da gʻazal haqida quyidagi fikrlar aytiladi: “Sharq mumtoz sheʼriyatida eng koʻp tarqalgan lirik janr. 3-4 baytdan 19 baytgacha boʻlgan hajmda yozilib, a-a, b-a, v-a, g-a... tarzida qoʻfiyalanuvchi sheʼr.

Gʻazal janri. Oʻzbek mumtoz sheʼryatining yetakchi janri. U nafaqat oʻzbek, Sharq mumtoz sheʼritida eng koʻp tarqalgan janrdir. Gʻazal soʻzi arabcha boʻlib, uni tadqiqotchilar turlicha talqin etishadi. Eng muhimi bu talqinlarda ichki mazmun jihatdan mushtaraklik-yaqinlik mavjud. Xususan, sheʼrshunos U.Toʻychiyev uning birligining doʻstlashmoq, Xusayniy Atoullohning taʼbiri bilan “Xotunlar bilan suhbat qurmoqni sevmak”, “maʼshuq jamoli zikri” va maʼshuqaga xushomaddan iborat boʻlgan juft misralardan iborat sheʼr deydi.

Professor T.Boboyev o‘z darsligida uni g‘azal, g‘azaliyot, ayollar bilan uynab-kulish ishq haqida bahs yurituvchi she‘r desa, prof. D.Quronov o‘z lug‘atida ayollarga xushomad qilish, ayollarni madh etish deydi. Eng zo‘r fikrni I.Sulton aytgan. U darsligida shunday yozadi: “G‘azalning tematikasi cheklangan, u ishq haqidagi asar” degan keng tarqalgan fikr bor. Bu noto‘g‘ridir. G‘azal kishiga xos hamma hislar doirasini qamrab oladi.; unda hatto sevgi mavzui asos bo‘lgan taqdirda ham umumahloqiy va falsafiy fikrlar izhor etilishi mumkin.

Uning necha baytdan iborat ekanligi xususida ham turlicha qarash bor. U.To‘ychiyev ko‘pincha 5 baytdan 12 baytgacha yoziladi desa prof, D.Quronov esa g‘azal 3-4 baytdan 19 baytgacha bo‘lgan hajmda yozilib, a-a, b-a, v-a, g-a, tarzida qofiyalanadi deydi. U yana qo‘shimcha qilib adabiyot tarixida 23 baytgacha bo‘lgan g‘azallar ham uchrashini ta’kidlaydi.

O‘zbek adabiyotida g‘azal fors-tojik g‘azalchilik zaminida paydo bo‘lib, XIV asr o‘rtalarida alohida janr sifatida shakllangan.

G‘azalning o‘zbek adabiyotidagi ilk namunalari Rabg‘uziyning “Qissas-ul Rabg‘uziy, Xorazmiyning “Muhabbatnoma”si tarkibida uchraydi. Adabiyotimiz tarixidagi barcha shoirlarimiz ijodida g‘azal yetakchi janr bo‘lib kelgan. Sayfi Saroiy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, S.Olloyor, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira ijodi buning yorqin dalilidir. A.Navoiy haqli ravishda “g‘azal mulkning sultoni” degan yuksak e’tirofga sazovor bo‘lgan.

G‘azal tarixiga e’tibor bersak, undagi lirik qahramon masalasi dunyoviylik xususiyatiga ega ekanligini ko‘ramiz. To‘g‘ri, mumtoz adabiyotimizdagi lirik qahramon asosan romantizm qoidalari asosida yaratilgan. Ammo unda realistik yo‘nalishlar ham kuchli edi.

Bu yo‘nalishning ikki jihati kuzatiladi. Avvalgisi ijtimoiy adolatsizlikni qoralash bo‘lsa, keyingisi inson ruhiyati, qiliqlar, hatti-harakatlarini tabiatidagi narsa va hodisalarga ko‘chirishdir. Buni birgina Navoiyning lirik qahramoni misolida ko‘rish mumkin. Navoiy lirik qahramonida oshiqlik, mutafakkirlik bo‘rtib turadi. U ishqni boylik, mansab, urug‘chilik bilan bog‘lamagan erkin tuyg‘u deb biladi.

Navoiyning lirik qahramoni jabr etishda yomon odamlar birdek, olamni buzayotgan xudo emas, balki odamlardir, deydi.

Navoiy gʻazallaridagi lirik qahramoni oʻz davrining madaniyati ahloqi, falsafasi va maʼnaviy dunyosining oynasidir.

2.Gʻazallarning mavzu yoʻnalishi va tuzilishiga koʻra turlari: Keyingi davrlarda gʻazalning mavzu yoʻnalishi kengayib borgan. Shu tariqa, gʻazal mavzusi insonning keng, intim tuygʻulari bilan birga ijtimoiy-hayot muammolarini ham qamrab oladigan boʻldi. Oʻzbek sheʼrshunosi prof. R.Orzibekov va tojik olimi akademik A.Mirzayevlarning taʼkidlashicha gʻazalning mazmuni, gʻoyaviy mundarijasi har bir davrda oʻzgarib boradi. U faqatgina yor qiyofasi va uning qiliqlari, xusni jamolini, intim kechinmalarnigina emas, ijtimoiy hayotiy masalalarini ham ifodalaydi.

Gʻazal formal-poetik jihatdan quyidagi xususiyatlarga ega.

A) ikki misrali bayt usulida yoziladi.

B)sheʼrdagi har bir bayt nisbiy mustaqillikka ega.

V)qofiyalanish tartibi: Birinchi bayt oʻzaro qofiyalanib, qolgan barcha baytlarning toq misralari birinchi bayt bilan qofiyadosh boʻladi.

A-a,b-a,v-a,g-a,d-a...

-qofiyadan soʻng, koʻpincha radif(otning orqasiga mingashib, ergashib keluvchi, izma-iz yuradigan sheʼr davomida barcha bayt(misralar oxirida qofiyadan soʻng takrorlanib keluvchi soʻz, soʻz birikmasi) keladi. Radifsiz gʻazallar ham uchrab turadi.

-Gʻazalning birichi bayti “matla” boshlanma va soʻnggi bayti “maqta”(tugallanma, xotima) deb yuritiladi;

-Sheʼr maqtaʼsida muallifning taxallusi yoki ismi koʻrsatiladi.

-Sheʼr musiqabop vaznlarda yoziladi.

-anʼanaga koʻra gʻazallar 10 baytdan oshmasligi lozim boʻlsa-da,amalda 10 baytdan ortiq gʻazallar ham yaratilgan. Oʻzbek adabiyotida koʻpincha 7-9 baytli gʻazallar yaratilgan. Masalan, Navoiyning “Xazoyinul maoniy”sidagi 2600 gʻazalning 1747 tasi 7 baytli, 695 tasi 9, 2tasi 5, qolganlari 12-13

baytlardir.(T.Boboyev darsligi, 481 bet).

Mumtoz she'riyatdagi janrlar borasidagi novatorlik janrdagi o'zgarishlarni va ularning yashovchanligini unda aks etayotgan mazmun taqozo etadi. Chunki mazmun eski janrni o'ziga moslaydi, janr esa mazmunga ayrim o'zgarishlarga bardosh bergan holda moslashadi. Agar janr buni istamasa, yangi mazmun ifodasiga zid tursa, an'anadan chekinmay, yangilanish yo'liga o'tmasa u to'siqqa aylana boshlaydi. Birorta janr, shu jumladan lirik janrlar ham mavzuga betarafdir.

O'tgan asr boshlarida – hayotdagi ijtimoiy o'zgarishlar tufayli Yevropa va rus lirikasi janrlarning adabiyotimizga kirib kelishiga yo'l ochildi. Xorijiy janr o'qish yo'li bilan, to'g'ridan-to'g'ri andoza olish va tarjima qilish orqali kirib keldi. Demak, har bir davr va adabiy jarayonning o'z janrlar tarkibi bo'ladi. Bunday xususiyat har bir katta-kichik shoir ijodi uchun ham xos.

Janr adabiy jarayonda quyidagi olti xil holatni boshidan kechiradi:

An'anaviylik;

Boshqa xalqdan o'tish;

Yangidan tug'ilish;

Eski janrning goho "o'lishi";

Janrning lirik belgilariga ega yoki ega bo'lmaslik;

Janrlikka intilayotgan she'rlarning mavjudligi;

Zamonaviy she'riyatning yetakchi tamoyillari haqida gapirganda, avvalo mumtoz she'riyatdagi mavjud she'riyat janrlarining an'anaviylik tamoyillari asosida taraqqiyot etayotganligini qayd etish kerak. Bu tamoyillar yoniga ularda realistik xususiyatning kashf etilganligini ham aytish lozim. Endi misollarga murojat qilaylik:

Yangi o'zbek adabiyotida Cho'lpon, Hamza izidan borib, aruzda yozilgan "Qalandar ishq", "Daryo bo'yida" kabi g'azallarida to'g'ridan-to'g'ri ishdagi, realistik, oddiy xalq tiliga dadil murojat qildi. Bu hol o'zbek g'azali uslubini chinakam yangi izga solishga xizmat qildi. Shakl mazmundorligi va tuzilishiga ko'ra shoir an'anaviy obrazlar safini boyitdi. G'azal poetikasi yangi mavzu, yangi mazmun, yangi istifo va yangi ifodalar bilan boyidi. G'. G'ulom, H. Olimjon,

Uyg'un, S. Abdulla g'azallarida qahramon, g'oyaviy motivlar va badiiy adsenal yangilandi.

XX asr boshlaridan boshlab g'azalchilikda yangi yo'nalish paydo bo'ldi: Uning ikki qutbi bor edi: biri aruzda davom etib, uning vakillari Habibiy, Charxiy, Uyg'un, V. Sa'dulla, J. Jabborov, E. Vohidov, J. Kamol edi. Bu qutb g'azallarida an'anaviylik yetakchilik qiladi. Ikkinchi qutb barmoq sistemasi vaznlarida bo'lib Mirtemir, T. To'la, Y. Shoma'ruflar o'z g'azallarida zamondoshlarimizning ichki kechinmalarini real jonlantirishdi. Ularda bir umumiy xususiyat ko'zga tashlanadi: Xalq tiliga yaqinlik, uslubning soddaligi, arxaizmdan qochish.

1.2. Yangi davr she'riyatida g'azalchilik an'analari

O'zbek mumtoz adabiyotida g'azal janrda ijod qilmagan shoir deyarli topilmaydi, Jumladan, Sayfi Saroyi, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Huvaydo, So'fi Olloyor, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira kabi mumtoz shoirlar o'zbek adabiyotida g'azal janri taraqqiyotiga katta hissa qo'shganlar. Adabiyotimizda g'azal janri rivojiga qo'shgan tengsiz hissasi uchun Alisher Navoiy haqli ravishda "g'azal mulkining sultoni" degan yuksak e'tirofga sazovor bo'lgan. Yangi davr she'riyatida g'azalchilik an'analari Habibiy, Charxiy, Chustiy, E.Vohidov, J.Kamol kabi o'nlab shoirlarimiz tomonidan muvaffaqiyatli davom ettirildiki, g'azalni hozirgi she'riyatda ham nisbatan faol bo'lgan janrlardan sanash uchun yetarli asos bor".□

Xususan, g'azal janrining yangi davrdagi taraqqiyot yo'li haqida gapirishdan avval "janr" atamasiga nazar tashlasak maqsadga muvofiq bo'ladi, deb o'ylaymiz.

"Janr -adabiy janr, adabiy asarlarning tarixan shakllanuvchi tipi, muayyan davr milliy yoki jahon adabiyotida umumiy xususiyatlari bilan turlicha ko'lamdagi guruhlarini tashkil qiluvchi asarlarni anglatuvchi tushuncha".□ Ta'rifdagi janrning muayyan davr milliy yoki jahon adabiyotida umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan "turlicha ko'lamdagi guruhlar"ga "g'azal" janri ham kiradi. Bu janrning rivojida quyidagi uch omil uning har bir millat, davr doirasidagi o'ziga xos jihatlarini tayin etadi:

- 1) muayyan tarixiy davr;
- 2)g'azalning milliy xususiyatlari;
- 3)umumsharq adabiyotidagi o'ziga xosliklari

Demakki, har bir janrning yaratilishi uchun qulay tarixiy sharoit, ehtiyoj va badiiy mushohada ko'lami mavjud bo'lishi darkor. Bu ko'rsatkichlar bir nuqtaga birlashgani holda muayyan bir janr dunyoga keladi. Albatta, bularning barini milliy badiiy tafakkur mezonlari tartibga soladi, nazorat qilib boradi. G'azal X-XI asrlarga kelib turkiy adabiyotda ham qo'llana boshladi. "Adabiyotshunoslik terminlarining izohli lug'ati"da g'azal haqida quyidagi fikrlar aytiladi: "Sharq mumtoz she'riyatida eng ko'p tarqalgan lirik janr. 3-4 baytdan 19 baytgacha

bo'lgan hajmda yozilib, a-a, b-a, v-a, g-a... tarzida qofiyalanuvchi she'r... Aytish mumkinki, o'zbek mumtoz adabiyotida mazkur janrda ijod qilmagan shoir deyarli topilmaydi, Jumladan, Sayfi Saroyi, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Huvaydo, So'fi Olloyor, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira kabi mumtoz shoirlar o'zbek adabiyotida g'azal janri taraqqiyotiga katta hissa qo'shganlar. Adabiyotimizda g'azal janri rivojiga qo'shgan tengsiz hissi uchun Alisher Navoiy haqli ravishda "g'azal mulkining sultoni" degan yuksak e'tirofga sazovor bo'lgan. Yangi davr she'riyatida g'azalchilik an'analari Habibiy, Charxiy, Chustiy, E.Vohidov, J.Kamol kabi o'nlab shoirlarimiz tomonidan muvaffaqiyatli davom ettirildiki, g'azalni hozirgi she'riyatda ham nisbatan faol bo'lgan janrlardan sanash uchun yetarli asos bor". □ Mumtoz she'riyatimiz an'analari va g'azal janrini davom ettirish jihatidan ushbu shoirlarni ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga "Sho'ro davri g'azalchiligi yoki davrga o'gay aruz" deb nom berdikki, bu davrda ijod qilgan g'azalnavislar sifatida S.Abdulla, Habibiy, Charxiy, Chustiy, Vosit Sa'dulla kabi shoirlar nom qozonishgan. Ular g'azal, muxammas, ruboiy, tuyuq kabi mumtoz janrlarda ijod qildilar. Ayni shunday ijodlari bilan ushbu shoirlar mumtoz va zamonaviy she'riyatimizni bog'lab turuvchi ko'prik vazifasini o'tadilar. Ular adabiyotimizning turli davrlari o'rtasidagi vorisiylikni ta'minlaganliklari bilan birga mumtoz she'riy janrlarning zamonaviyligini, davr voqealariga hamnafas jaranglashini namoyish eta bildilar. Ularda shakl an'anaviy - ko'p asrlik bo'lsa-da, mavzu doirasiga ko'ra sho'ro davriga, yangi voqelikka hamnafaslik ko'zga tashlanadi. Bu narsa g'azal janri o'zi nisbatan begona bo'lgan sho'ro voqeligida ham yashay olish iqtidorini namoyish qildi. Ikkinchi guruhga E.Vohidov, J.Kamol va g'azal janrida ahyon-ahyonda ijod qilib turadigan S.Zunnunova, A.Oripov, T.Qahhor kabi shoirlar mansub bo'lib, ular ham barmoqda, ham aruzda ijod qildilar. Bu guruh ijodkorlar davrning o'z o'tkinchi muammolarini targ'ib qilishga undashi, ya'ni shiorbozlik qobig'ini yorib chiqqanlari holda g'azalga go'yo yana qaytadan jon ato etdilar. Ushbu guruhni "Yangilangan g'azalchilik davri" ijodkorlari deb hisobladik.

Ular g'azalning ikkinchi umrini, janriy taraqqiyotining yangi bosqichini

belgilab berdilar, Birinchi davr ijodkorlari uchun xos bo'lgan xususiyat shundan iboratki, ular yaratgan poetik shakllar vazn jihatidan garchi aruzda bo'lsa ham, ifoda uslubiga ko'ra sodda va hayotiy voqelikka ortiqcha darajada moslashgan. Sobir Abdullaning "Paxtakor juvonga" deya nomlangan g'azaliga to'xtalsak. G'azal mumtoz poetik shaklda yozilsa-da, mazmunan yangi, unda voqelikka zamonaviy yondashuv sezilib turadi. G'azalning mavqe darajasini belgilovchi omil: "...uning konkret muhit bilan, shoir yashagan davr problemalari bilan bevosita bog'liqligi hamda ularda ilg'or ijtimoiy ruhning muayyan darajada aks etganligidadir", - deb hisoblaydi yirik adabiyotshunos Y.Ishoqov. Bu fikr A.Navoiy g'azaliyoti munosabati bilan aytilgan va qizig'i shundaki, ushbu xususiyat sho'ro davri g'azalchiligida yetakchi, hatto hukmron tamoyilga aylangan. Sobir Abdullaning "Paxtakor juvonga" deb nomlangan g'azalida ham ayol uning ijtimoiy faoliyati, kasbi, mehnatiga ko'ra madh etilgan bo'lib, bu g'azal ayolga yaxshi ma'noda o'qilgan hamd-sanolar emas, balki uning kolxoz sharoitidagi ayol mehnatiga oid go'zal tashbehlaridir:

Kuzda har tup paxtadan yuz shona ko'zlar ko'zlaring,

Shona ko'zlashdan bo'lak, jono na ko'zlar ko'zlaring.

Adabiyotshunos olim N.Karimov ta'kidlaganidek, "oq oltin" o'lkasining poeziyasi an'anaviy bo'lib qolgan paxtakorlarga she'riy xatlar dan tashqari davr uchun dolzarb bo'lgan "oq oltin", ya'ni paxta mavzusi an'anaviy mumtoz janr -g'azalda aks etgan. Shoirning o'ziga xos uslubini belgilashda muhim rol o'ynagan, g'azal maqta'sida shoir nomi keltirilmagani holda g'azal xulosalangan:

Zavqu bahringni ochib, ko'm-ko'k bo'liq, keng paxtazor,

Xorazmdan boqsa, to Farg'ona ko'zlar ko'zlaring. □

Habibiyning "Ona maktubi" nomli g'azalida Ikkinchi Jahon urushi asnosida onaning farzandiga nasihati, o'giti ifodalangan:

Yovga qul bo'lsang, ayo o'hlim jahonni naylayin,

Yaxshidir yer ustidan osti, bu jonni naylayin.

Keyingi baytlarda ushbu fikr rivojlantirilib, ona o'g'lini mardlik sari

chorlaydi, nasihat qiladi, gʻazalning boshidan oxiriga qadar qizgʻinlik bilan farzandini mardlik va qahramonlik koʻrsatishga chorlaydi:

Urmasang yov koʻksiga mardona bu xanjar bilan,

Beldagi belbogʻu tigʻi isfihonni naylayin.¹

Ushbu misralarda oʻzbek ayoli - Onaning ichki dunyosi tasvirlangan boʻlib, u oqu qorani ajratadigan, Vatan uchun jon fido eta oladigan vatanparvar. Yuqoridagi misollardan koʻrinib turibdiki, zamonabop gʻazallar (biz bu yerda oʻsha davrda yozilgan gʻazallarga salbiy munosabat bildirishdan yiroqmiz, faqat ularning oʻziga xos xususiyatini koʻzda tutmoqdamiz) shaklan, qofiyalanish tartibiga koʻra mumtoz gʻazallar kabi boʻlsa-da, ular mumtoz gʻazallardagi mubolagʻaviylik, jimjimadorlikdan holi; ularning mavzu koʻlami kengaygan, obrazlar sistemasi muayyan darajada yangilangani bilan birga bu gʻazallar yangi zamona, shoʻro voqeligiga xos qator xususiyatlarga ega. Bu oʻzgarishlar davrga hamohanglik, uning talablariga “labbay” deb javob berish oqibatida roʻy bergan. Yuqoridagi misralarda anʼanaviy gʻazalda yetakchilik qiladigan ayol-maʼshuqa obrazi oʻrnini Ona egallagan. Natijada ayolning gʻazal janri doirasidagi ijtimoiy mavqeyi bir qadar kengaygan. U endi maʼshuqa kabi nozik, navnihol, tabiatning goʻzal mahsuli emas, balki jamiyat faol aʼzosi -ozodlikka daʼvatkor inson sifatida gavdalangan. Bir necha asrlar mobaynida davom etib, avloddan avlodga oʻtib kelayotgan gʻazalga xos boʻlgan milliy ruh va mumtoz anʼana yuqoridagi misralarda yoʻqolganday koʻrinadi. Biroq aynan shu koʻrsatilgan xususiyatlar, gʻazalning oʻzgarishi janrning oʻz zamonasidagi oʻziga xosligini taʼminlaydi. Ushbu oʻrinda yirik adabiyotshunos olim Y.Ishoqovning quyidagi fikrlari yana bir bor oʻz isbotini topadi: “Har bir janr uchun voqea va inson kechinmalarining muayyan tomonlarini oʻziga xos yoʻsinda ifodalash mansub. Shu jihatdan, janrlar mavjud adabiy normaning, badiiy mezon (kanon)ning bevosita ifodachisi hamdir. Lekin, yuzaki qaraganda, oʻzgarmas va stabildek koʻringan janrning oʻz ichida ham badiiy tafakkurga xos xarakterli holat - oʻz-oʻzini inkor vositasida traditsion tasavvurlar doirasidan chiqishga intilish - ichki evolyutsiya davom etadi va uzoq jarayon

¹ Ўша манба. Т.4-Б.391

tarzidagi ana shu miqdor o'zgarishi ma'lum bir shart-sharoitlar ta'sirida sifat o'zgarishiga o'tishi mumkin". □ Xuddi shunday jarayon XX asr birinchi yarmidagi o'zbek g'azalchiligida ham ro'y bergan deyish mumkin.

Ma'lumki, o'zbek mumtoz adabiyotida g'azal yetakchi janr hisoblanadi. Sho'ro davrining adabiy siyosati o'zbek she'riyatidagi an'anaviy janrlarni siqib chiqardi. Shunga qaramay dastlab bu janrlarda barmoq bilan sanarli shoirlar qalam tebratdilar. An'aviy g'azalning an'anaviy shakli va unsurlarida zamondosh shoirning lirik "men"i namoyon bo'lib, bu mumtoz adabiyotimizga xos shaklda yoritildi. Bejiz A.Qahhor; "She'r - oshiqning ohi, musibatdiydaning ko'z yoshi, saodat va surur ifodasi bo'lgan qahqaha tovushi" □,- deb aytmagan. She'riyat zamon bilan hamnafas tarzda yangilana boradi. Uni har bir ijodkor o'zicha yangilaydi. Bu haqida yana A.Qahhor yozadi: "Ma'lumki, zamon o'tishi, davr almashuvi bilan kishilarning fikri o'zgaradi. Fikr o'zgarishi bilan badiiy ifodalarning ta'siri ham o'zgaradi. Hozirgidek burungi shoirlar ham o'quvchiniig hissiga ta'sir qilish uchun aksari uning o'zida bo'lgan tayyor hisdan foydalanganlar. Masalan, ma'lum davr kishilarida Xudo, ka'baga nisbatan ma'lum his bo'lgan. Shuning uchun:

Muazzin ka'ba toqi uzra gulbongi samad urdi,

Barahman dayr ayvonida ohangi sanam chekdi, - (Navoiy)

dek satrlar ularga ta'sir qilgan. Hozirgi yoshlar hozirgi shoirlarning kitobida shunday satrlarni ko'rsa qanday ta'sirlanishi mumkin".¹

Davr nuqtai nazaridan g'azal janriga bo'lgan munosabat bir xilda kechmadi. O'rta asrlarda mumtoz adabiyotda ijodkor iste'dodini belgilovchi omili bo'lgan bu janr sho'rolar davri adabiyotida o'tmish merosiga bepisand qarash, shiorbozlik, madhiyabozlik siyosatiga binoan A.Qahhor kabi yetakchi ijodkorlar tomonidan kamsitildi.

Ammo yuqorida keltirganimizdek, she'rning mohiyatini teran tushungan adib negadir aruzga nisbatan salbiy munosabatda bo'lgan. Vaholanki, qalbdan chiqarib yaratilgan, komil inson tarbiyachisi bo'lgan she'riyat har qanday libosda ham

¹ Ўша манба.-Б.259

fusunkor. A.Qahhor: “Biz aruzga hech qachon noto‘g‘ri munosabatda bo‘lgan emasmiz - hamma vaqt uni muzey eksponati hisoblaganmiz va minba’d ham shunday hisoblaymiz”, □ - degan fikrda. Muzey eksponati deb, o‘tmishda ishlatilib, bugungi kun ehtiyoji uchun yaramaydigan, ko‘rgazmaga qo‘yilgan biror narsa yoki buyum tushuniladi.

Aruz bugungi davr she‘riyatida yetakchi o‘rinni egallamasa ham, kitobxon ehtiyojiga javob bera oladigan, iste’dodli shoirlar tomonidan qo‘llanilayotgan adabiy vosita. Nomdor adib tomonidan aytilgan aruz haqidagi yuqoridagi fikrlar bilan kelishmagan holda rus shoiri A.S. Pushkinning o‘z vaqtida bundan faxrlanib aytgan quyidagi fikrlarini keltiramiz: “Ikki xolat Yevropa she‘riyati ruhiyatiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatdi: biri arablar bosqini, ikkinchisi salb yurishlari. Arablar unga ishqning jununi va nazokatini, mo‘jizakorlik va otashin Sharq suxandonligini baxsh etdi”.

Adabiyotshunos olim O.I.Fedotov ham bu masalada quyidagi fikrda: “O‘rta asr arab she‘riyat nazariyasida she‘riyatga shunday klassik ta’rif beriladi: “Muayyan ma’no-mohiyatga ega bo‘lgan o‘lchovli, qofiyali nutq”. Bu narsa shuni ko‘rsatadiki, g‘azal butun dunyo tan olgan qat’iy qonuniyatlar va o‘chmas badiiy nafosatga ega. Uni muayyan davrning o‘tkinchi injiqliklari bilan yo‘qqa chiqarish mumkin emas.

Xususan, “XX asrning dastlabki o‘n yilligida yaratilgan Hamzaning “Devoni Nihoniy”si go‘yo g‘azal janrining keyingi davr taraqqiyotini belgilab bergandek tuyuladi. Bu Hamzaning o‘zbek g‘azalchiligining yangi taraqqiyotida o‘ziga xos maktab yaratganini ko‘rsatadi.

Keldi ochilur chog‘ing o‘zliging namoyon qil,

Parchalab kishanlarni har tomon parishon qil,-

deb boshlanuvchi g‘azalida tasvir va uslub zamona zayliga mos. Lirik qahramon o‘z davri adabiyoti xususiyatiga moslashgani holda ma’shuqa obrazining go‘zalligini tasvirlamaydi. Unga to‘g‘ridan to‘g‘ri da’vat etadi. Bu da’vat dunyoviy ilmlardan boxabar bo‘lish, turmush tarzini o‘zgartirishda ko‘rinadi. Ma’shuqa go‘zalligini tarannum etib kelgan hayot endi kishanga

aylangan, ilgari yer obrazi uchun tashqi go‘zallikning o‘zi kifoya edi, endilikda uning ichki olami ham tashqi ko‘rinishiga mos kelishi lozim.

*Oy yuzing qora chimmat zulmidan quturtirgil,
Chiq qorong‘i turmushdan, nur ichida javlon qil.
Sen qachon maorifning dargohiga yo‘l topsang,
Nurlarin olib ko‘zga surmayi sulaymon qil.*¹

Yor bilan birga an‘anaviy tarzda uning chiroyini ochib berishda qo‘llanadigan surma maorif nurini o‘rnida qo‘llanadi. Shu o‘rinda shoir ishlatgan mafhum o‘z o‘rnida qo‘llanganini ko‘ramiz. Aslida surma nafaqat ko‘zga chiroy beradi, balki ko‘z nurini ham ravshanlashtiradi. Ilm esa inson hayotidagi umr yo‘lini charog‘on etadi. Yuzaki qaraganda shaklbozlik ustuvordek ko‘ringan bu g‘azaldagi mafhum uning badiiyligini oshirib, janrning “yangi hayoti”ga o‘sha kunlardanoq asos solinganligini ko‘rsatadi. Ilm islomda Ollohni tanish vositasi sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda ham ushbu g‘azal mumtoz an‘analarga hamohang tarzda yaratilganini ko‘ramiz. Ma‘no- mavzusi ma‘rifatchilik bo‘lgan bu g‘azalga o‘sha zamona muammolari; johillik, loqaydlik, ilmsizlik qo‘shilib, g‘azal o‘z zamonasida dolzarbligini saqlagan. Bu holat “oy yuz”li ma‘shuqa obraziga ilmli bo‘lishdek katta mas‘uliyat yuklagan.

“Shu narsa diqqatga sazovorki, klassik adabiyot an‘analarini yangi tarixiy sharoitda davom ettirish va rivojlantirish ishida yoshlar ayniqsa jonbozlik ko‘rsatdilar” deb ta‘kidlaydi N.Karimov.² 60-yillarga kelib aruzga, g‘azalga bo‘lgan munosabat bir qadar yumshadi. Xuddi shu davrda she‘riyatiga g‘azalnavis sifatida E.Vohidov kirib keldi. Uning va yuqorida nomlari keltirilgan bir qator ijodkorlarning ijodi g‘azal janri o‘zbek adabiyotining keyingi taraqqiyotida aruzga munosabat loqayd emasligining isbotladi.

Uning quyidagi misralari shoirning, bir tomondan, aruzda, g‘azal janrida ijod qilishdan hadiksirab turganini ifoda etsa, ikkinchi tomondan, zamondoshlarimizning bunga munosabatidan cho‘chiydigandek tuyuladi:

Istadim sayr aylamoqni men g‘azal bo‘stonida,

¹ O‘zbek she‘riyati antologiyasi.-T., O‘zSSR Davlat Badiiy adabiyot nashriyoti. 5 tomlik. T.4.-B.37

² Karimov N. O‘zbek adabiyotida janrlar tipologiyasi va uslublar rang-barangligi.-T., “Fan”. 1983. –B-105

*Kulmangiz ne bor senga deb Mir Alisher yonida.*¹

Dastlab, yuqorida ta’kidlaganimizdek, ming bir istihola bilan g‘azal janriga qo‘l urgan shoir bugungi kunda mohir g‘azalnavis, g‘azal ilmining bilimdoni bo‘lib, nafaqat she’riyatimiz xazinalarini milliy libos bilan boyitib kelmoqda, balki mumtoz janrimizga yangi hayot, zamonaviy talqin baxsh etmoqda. E.Vohidov mumtoz g‘azalni yangiladi, yangi zamona uchun qonuniy o‘rin olib berdi.

Agar mumtoz adabiyotimiz g‘azalnavisligida shoir va mutafakkir Hazrat Navoiy xizmatlari beqiyos bo‘lsa, zamonaviy g‘azalnavislikda E.Vohidov alohida o‘rinni egallaydi. Shoir yozganidek:

Ey munaqqid, sen g‘azalni ko‘hna deb kamsitmagil,

Sevgi ham Odam Atodin qolgan inson qonida.

Ibrohim G‘afurov aytganidek: “Ishqning tili Sharqda otashin loflar tilidir. Erkin Vohidov o‘z g‘azallarida shu til elementlaridan ham ustalik bilan foydalanadi va o‘quvchisini o‘z qahramonlari dardiga sherik qila biladi. An’anaga yangi nafas bag‘ishladi. Uning g‘azallari keng taralganining sabablaridan biri ham mana shunda”.²

Natijada bugungi yangilangan, qayta yoshargan, qayta jon kirib tirilgan g‘azalnavislikni E.Vohidovsiz tasavvur qilish mushkul:

Rost, g‘azal avjida barcha Oy ila Zuhro emas,

Ko‘p erur somonchilar ham she’riyat osmonida...

Haqiqatan ham, 60-yillarda o‘zbek g‘azalnavisligi davom etgan qish faslidan so‘ng yashnab kirib kelgan, ilqlik baxsh etgan bahor quyoshidek yangilanish oqibatida yashnadi, “yam-yashil daraxt”ga aylanib, ko‘plab shinavandalarni soyasidan bahramand bo‘lishga chorladi.

Shu o‘rinda E.Vohidovning ushbu g‘azalini A.Navoiy aynan bir xil vaznda bitilgan mashhur g‘azali bilan qiyoslashni lozim topdik.

O‘n sakiz ming olam oshubi agar boshindadur,

¹ Vohidov E. “Ishq savdosi”. Saylanma. T., “Sharq”. 2000. 4 tomlik. T. 1-B.-114

² I. G‘afurov. Yam-yashil daraxt.-T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti

*Ne ajab, chun sarvinozim o'n sakiz yoshindadur.*¹

Navoy g'azali tasavvufona falsafiy g'azal, E.Vohidovning g'azali zamonaviy ruhda. Har ikki g'azal musammani maxzuf (foilotun foilotun foilotun foilun) vaznida yaratilgan. Har ikkisida ham radif bo'lmay, qofiyadosh so'zlar bilan yakunlangan.

Navoiyda: boshindadur, qoshindadur, naqqoshindadur, xuffoshindadur, yoshindadur kabi qofiyadoshlik mavjud. E.Vohidovda: bo'stonida, yonida, imkonida, qonida, devonida tarzidagi qofiyalangan. Har bir tilda o'z davri uchun an'anaviy bo'lgan qofiyalar juftligi mavjud bo'lgani holda ularni o'zaro mazmunan bog'lab turadi. Albatta, qofiyalar o'z-o'zidan ohangdoshligini ta'minlab turgani holda, ayni paytda, (agar g'azalda radif bo'lsa) ishora ham qiladi.

Ushbu ikki g'azaldagi obrazlar sistemasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Navoiyda u: sarvinoz - Olloh, oshiq-Olloh ishqiga da'vogar so'fiy, mug', pirdan iborat. E.Vohidovda: oshiq - she'r shaydosi, raqib - munaqqid, mahbuba-mukammal g'azal. Har ikki g'azal o'z davrining she'riy kanonlariga mos yaratilgan.

A.Oripov E.Vohidovchalik g'azal janrida ko'p qalam tebratmasa-da, lekin g'azalnavislikda o'z o'rniga ega. Shoir g'azallari oz bo'lsa-da, soz. Quyida uning "Yozajakman" radifli g'azalini tahlil qilib ko'ramiz:

Do'stlar, demangiz, men she'ru doston yozajakman,

*Men she'ru doston ichra bir afgon yozajakman.*²

G'azal bosh obrazi shoirning o'zi. Uning ichki kechinmalari qo'liga qalam olishga, she'r yozishga undaganligini ta'kidlamoqda. Agar mumtoz adabiyotda asosiy obrazlar umumiyroq tarzda, ya'ni oshiq, yor va raqib obrazlari orqali gavdalantirilsa, zamonaviy g'azallarda bu obrazlar o'rnida bevosita shoirning o'zi bo'lganligi holda bu g'azalda mavzu an'anaviy- insonshunoslik. Demoqchimizki, XX asr g'azalchiligida shoir o'zini qiynagan muammolarni bevosita o'zi, o'z nomidan talqin etadi. U davom etadi:

Hayrona boqur bu menim ahvolima har kim,

¹ A. Navoiy. Qaro ko'zim.-T., G'.G'ulom nomidagi Adbabiyot va san'at nashriyoti, 1988.- B.-154

² A. Oripov. Yuzma-yuz.-T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1978.-B.104

Men ersam o'zgalah ahvoliga hayron yozajakman

Bu baytda ham voqea ijodkor atrofida kechadi, undan o'zga olamga ko'chmaydi. Shoir zamondoshlari qurshovida, lekin uni atrofdagilar tushunmaydi. U esa o'z navbatida, atrofdagilarni tushunmaydi. Bundan uning oddiy inson emasligini, ya'ni dilida dardi bor, atrofdagilar o'lchovi bilan fikrlamaydigan ijodkor shaxs ekanligini uqamiz. Shu bilan birgalikda u hali ham oddiy bir banda ekanligini uqtirishi bilan davrga emas, balki faqatgina Ollohga qul ekanligini iyyom san'ati orqali ifodalaydi:

Quldur demangiz, garchi nomim Abdulla erurman,

Rasul ham emas, yo'q hali unvon yozajakman.

Ya'ni bu baytga tashqi tomondan qaralsa, faqatgina shoirning nomi bilan bog'liq bo'lgan ma'noni uqish mumkin. Lekin baytning asosiy, ichki ma'nosi sho'ro davri siyosatiga borib taqaladi. Shoir ismining sharhi "Olloh quli" sifatida izohlansa-da, u bu davrga, uning siyosatiga qul emas. Shoir bunday tushunchalardan ancha uzoqda, insonga, davrga qullik uning e'tiqodiga begona. Bu davrning soxta martabalari, unvonlari ham unga begona. Lekin u olmoqchi bo'lgan haqiqiy unvon "inson" unvoni ekanligini uqtirgan. Shu sababdan har qanday siyosatda ham, har qanday sharoitda ham ijod bilan shug'ullanishini, shug'ullanganda ham, vijdonan, qalb amri bilan erkin, qul bo'lmagan holda shug'ullanishini uqtirmoqda.

Yuqorida ijodidan namunalar keltirilgan ikki dongdor shoir ijodini taqqoslaydigan bo'lsak, E.Vohidovning mumtoz adabiyotning bugungi kunda yangilangan janri bo'lmish g'azaldagi merosi A.Oripovnikidan miqdor jihatidan salmoqliroq. Shoir bu janrga ko'p va xo'b murojaat etadi. A.Oripov ijodida g'azallar miqdori kam bo'lsa-da, shoir g'azal janriga oz va soz murojaat etadi. Ikki ijodkor ushbu janrda ham xaqiqiy iste'dod namunasi ko'rsata olgan.

Har ikki holatda ham ikki ijodkor ijodi 60-yillardan beri minglab iste'dodlar uchun ijodda mash'al bo'lib kelmoqda. Ikki ijodkor lirikaning ko'plab janrlarida qalam tebratganlar. Shu asnoda ularni lirikaning an'anaviy janri-g'azaldosh novatorligini qanday namoyon bo'lishini o'zaro taqqoslash yo'li bilan sharhlashni

maqsad qildik. Taqqoslar aynan 60-80 yillar o'zbek g'azaliyotining asosiy badiiy-ilmiy manzarasini ko'rsatadi degan umiddamiz. Chunki bugungi kunda biz uchun shunday imkoniyat mavjudki, biz o'zbek badiiy ongining in'ikosini ikki she'riy tizimda: aruz va barmoqda o'rganishimiz mumkin. Savolni quyidagicha qo'ysak maqsadga yetishda to'g'ri yo'l tanlagan bo'lamiz:

Aruzda badiiy ong qay darajada va qanday aks etadi?

Barmoqdagi badiiy ongning farqi nimada?

Bugungi kun g'azallaridagi badiiy obraz xususiyatini belgilovchi omillardan biri sifatida shoirlarning bugungi kundagi hayot darajasi, badiiy ongi, badiiy tafakkurining modifikatsiyasi ham belgilaydi. Ya'ni bugungi kun g'azallarida bevosita zamondoshlarimizning hayoti, dunyoqarashi aks etadi. Agar mumtoz adabiyotdagi hayot, insonlar ma'naviyati, dunyoqarashida arab-fors adabiyotining badiiyatiga doir qarashlar yetakchilik qilsa, zamonaviy she'riyatda buning aksi zamonaviy milliy sotsial badiiylik yetakchi pozitsiyani egallaydi. Natijada g'azal shaklu shamoyili o'rta asrlarnikiga o'xshash bo'lsa-da, ulardagi badiiylik in'ikosi o'ziga har bir davrda katta farqqa ega.

E.Vohidov sovet davri alifbosining deyarli barcha harflari bilan tugallanuvchi g'azallardan iborat devon yaratganini qayd etgan holda uning "Uzum" radifli g'azaliga to'xtalib o'tmoqchimiz:

Ter-mu-lar shab/ nam-da yap-roq/ os-ti -dan pin/ hon u-zum

V - - / - V - - / - V - - / - V -

Lab-la-ring-ga / yet-mo-q is- tab/ tong sa- har gir/ yon u-zum.

V - - / - V - - / - V - - / - V -

Ramali musammani maqsur vaznida bitilgan ushbu g'azalda fikrni oddiy tarzda ifodalash usuli orqali shoir dunyoqarashi hayotiy tirikchilik pallasidan pog'onama - pog'ona o'sib, umrboqiy mavzu sanalmish "ishq" mavzusi darajasiga ko'tarila olgan. Yuqoridagi matla'da yorning go'zalligiga oshiq bo'lib qolgan predmet - uzum. Uning orzusi unga yetishishgina ekanligi aks ettirilgan bo'lib, matla' o'zining favqulodda fikrga asoslanganligiyu sodda tarzda ifodalanganligi bilan farqlanadi.

Ikkinchi baytda esa an'anaviy ifoda ustunlik qiladi:

Oftob mashshotasi tok sochipi nurdan tarab,

Zangining bo'yniga osmish shodai marjon uzum.

Bayt tashxis san'ati namunasi hisoblanadi. Oftob pardozechisi tok sochini nurdan tarab, tok zangini bo'yniga uzumni marjon qilib osgan.

Uchinchi baytda oddiy hayotiy tasvirdan fikr falsafiylik tomon siljiydi. Ya'ni ishqning mohiyatiga urg'u beriladi:

Toqi ishqom misli osmon har taraf yulduz sochur

Voh ajab bu ne sinoat yer uzum osmon uzum.

Ishq mohiyatidan ishq tafsiliga o'tilgan. Uzumning savatga bosh qo'yib, taqdirga tan berib bozorda ishqini izlashi tasvirida iyhom san'atiga duch kelamiz. Savatni ikki ma'nosi bo'lib, birinchisi o'z ma'nosi-savat anglashiladi. Ikkinchi asosiy ma'no - taqdir hisoblanadi. Bozor ham xuddi shu tarzda. O'z ma'nosi — savdo-sotiq maskanini anglatgani holda, asosiy ichki ma'nosi - dunyodir:

Tark etib ko'shkin, savatga qo'ydi bosh izlab sepi

Charx urib bozor ichida bo'ldi sargardon uzum,

Beshinchi bayt beixtiyor tasavvufiy ohanglarni yodga soladi. Oshiq ko'nglida ishq paydo bo'lgani holda u parvoz eta olmaydi. Uning parvoz aylashi uchun ishq komillik darajasiga erishishi lozim. Ishq ham tanaga zindonband etilgani kabi ishqdan bag'ri qon uzum ham xum ichiga bandlandi. Ushbu tasvir g'azaldagi ishq mavzusining an'anaviyligini ta'minlagani holda bu mavzuni yanada mukammalroq - o'ziga xos zamonaviy mushohada orqali sharhlab, yuksaltirishga yordam beradi. She'riy kompozitsiyaning g'oyaviy yo'nalishini belgilaydi:

Kimki oshiqlikni da'vo aylasa shuldir jazo,

Oqibat xum ichra bo'ldi mahkulsh zindon uzum.

Xum ichida necha yil xun bo'lmoq erkan qismati,

Lablaringga yetdi oxir bir piyola qon uzum.

Ishq mumtoz adabiyotda komillikka yetaklovchi mezon sanalgani holda unga o'z-o'zidan erishilmaydi. Unga yetishish uchun ishq ichida "ishq" bilan yashay olish lozim. Ushbu holat yo'qotishlarsiz, azobu iztiroblarsiz amalga oshmaydi:

*Ey dilorom, senga Erkin tutdi maydek she'rini,
Dil xumida necha yil qon bo'ldi bu devon uzum*

Shoirning ushbu gʻazaldagi novatorligi shundaki, u janr doirasidagi anʼanaviylikni: badiiy ifoda usulini, vaznni, badiiy sanʼatlar vorisiyligini taʼminlagani holda, ishqning yangicha talqinini sodda, ravon misralarda hayotiy detallar asosida - yetilib pishgan uzumning may uchun ozuqa boʻlishi asosida tasvirlagan. Ushbu oʻrinda, birinchidan, gʻazalning ham mavzudagi, ham shakldagi anʼanaviyligi saqlangani holda; ikkinchidan, yangicha talqin, yangi fikriy mushohada, demakki, gʻazal uchun anʼanaviy deb hisoblangan “ishq”ning yangicha ifoda va talqini kelib chiqqan.

E.Vohidov “badiiy soddaligi”ni sharhlashdan oldin A.Oripovning Gegel triadasi haqidagi mushohadasini keltirish oʻrinli deb oʻylaymiz: “Buning maʼnosi: Oddiylik – murakkablik- oliy darajadagi oddiylikdir”.¹ E.Vohidovda “badiiy soddalik” quyidagi mezonlar orqali ifoda etilgan:

Badiy obraz	Obrazlilik	Oddiylik	Sanʼatlar	Mavzu
Uzum-oshiq	uzumning	uzum orqali	tashxis	azaliy-
maʼshuqa	yaproq	insoniy	tashbeh	ishq
raqib -	ostidan	munosabatlarining	istiora	muhabbat
xaridor	pinhona	aks ettirilishi	jonlantirish	
	termulishi			

muhabbatning ijodkorga, oʻz navbatida, ijodkorning ham muhabbatga boʻlgan munosabatini sharhlab bergan. Bu munosabat gʻazalda “bilvosita” aks ettirilgan. Umuman olganda hayotiy manzara-shabnam ostida uzum donalariniig yaltirab — inson nigohi orqali aks etgan ishq armonini ifodalashi orqali berilgan. "Uzum"ning armoni bitta - yor vasli, yor diydori. Baytda insonga xos boʻlgan murakkab, ayni paytda nozik kechinma, hissiyotlarni yoritish vazifasi kundalik hayotimizdagi hech kim deyarli eʼtibor bermaydigan “uzum” zimmasiga yuklatilgan. Aslida baytning “oliy darajadagi oddiyligi” ham kundalik hayot neʼmati “uzum” orqali oliy va murakkab hissiyot-muhabbatning nozik tovlanishlarini qoyilmaqom darajada ifodalanganligidadir. Insonga ishqning taʼsiri va aks taʼsirining mukammal va oʻta

¹ Oripov a.Ehtiyoj farzandi. T., “Yosh gvardiya”. 1988.-B. 150

badiiyat bilan yoritilishi esa, o‘z navbatida, “g‘azal” janri zimmasida amalga oshirilgan. Shu o‘rinda M.Qo‘shjonovning fikri e‘tiborimizni tortadi: “Odatda, aruz sotsial-psixologik motivlarini lirik qahramonning intim hayoti orqali ifodalashga moyil. Demak, aruzda ma‘lum bir shakl chegarasi bo‘lganidek, ma‘no chegarasi ham bor”.¹

Ayni damda, shoir muhabbat iztirobini muayyan shaklda ifodalashi bilan birga shaxsiy kechinmalari zaminida umrboqiy mavzuni yangicha sharhlagan. Badiiy adabiyotimiz uchun boqiy mavzulardan biri bo‘lmish - ishq-muhabbat mavzusi shoirning barmoq vaznidagi “Sevgi” nomli she‘rida quyidagicha jaranglaydi:

*Dastlab har kim qalam olgan on
Yonib seni kuylar begumon.
Maskan qurib har bir ko‘ngildan,
Oshiqlarni qoldirib tildan,
Shoirlarni qilursan biyron...
O‘n sakkizga kirmagan kim bor,
Bog‘ingdan gul termagan kim bor...²*

Badiiy obraz	Obrazlilik	Oddiylilik	San’atlar	Mavzu
shoirning o‘zi	18 yosh taassurotlari	bevosita oshiq holatining bayoni	sifatlash, ritorik so‘roq	azaliy - ishq-muhabbat

Yuqorida ikki janrdagi badiiy ong, badiiy tafakkurning yaktanligi “ishq” mavzusining umrboqiyligida ko‘rinsa, farqi quyidagicha:

- 1)ifoda vositasi: aruzda - uzum; barmoqda - yosh yigit;
- 2)aruzda oddiylilik-hayotiy epizod-uzumning tonggi shabnamdagi tasviridan

¹ Qo‘shjonov M. Saylanma. 2 jildlik. 1-jild.-T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1982.-

² Qo‘shjonov M. Saylanma. 2 jildlik. 1-jild.-T., G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1982.- B.41

boshlanib, murakkablik inson kechinmalari jonsiz predmet orqali
ochiladi, murakkab oddiylik tabiat va insoniy ongning mutanosibligida
beriladi, barmoqda badiiy tafakkur bevosita oshiq ruhiy holatining oddiydan
murakkabga tomon sharhlanishida aks
etadi;

3)Aruzda lirik qahramon-oshiq kechinmalari “pardali” tarzda aks etsa,
barmoqda lirik qahramon kechinmalari ochiqdan- ochiq shaxs hissiyotlari
zaminida beriladi. Ijodkorning “muhabbat”ga bo‘lgan munosabati bevosita
aks ettirilgan. Badiiy obraz kechinmalari oshkora tasvirlanib, ayni damda,
kechinmalar oshiqni boshqarib borgan;

4)Aruzdagi “sahl-ye mumtani”ning mohiyati, kuchi ham shundaki, “oddiy,
jun odatga aylangan, me’yoriy, boshqalardan alohida xususiyatlari bilan ajralib
turmaydigan fikrlash zaminida ancha murakkab va nozik kechinmalar
ko‘lamining ochilishi mumtoz g‘azalda bosh mezon sanalib, yuksak badiiylikni
ta’minlaydi. Ya’ni aruzdagi murakkablik ham “oddiylik” pardasida
berilsa, barmoqda murakkablik bevosita ifodalanadi.

Navbatda A.Oripovning “G‘azal” deb nomlangan g‘azalini taqqoslashni lozim
topdik. Ushbu g‘azal ham janr uchun an’anaviy bo‘lgan ishq mavzusida.
Matla’ning o‘zidanoq ishq hamda ishqdagi ta’sir va aks ta’sir munosabati falsafiy
mushohada orqali bayon etila boshlanganligiga guvoh bo‘lamiz. Ayni damda
g‘azal aruzning boshqa bir vaznida - hazaji musammani solimda bitilgan:

V - - - - / V - - - / V - - - / V - - -

O‘-qur-man deb/ xi-tob et-din,/ xi- to-bing ich/ra men bor-man.

V - - _ / V - - - / V - - - / V - - -

G‘azaldagi “lirik kahramon” aynan g‘azal janri uchun xos bo‘lgan an’anaviy
mavzu — ishqni nafaqat talqin etadi, balki ishqida qat’iy ekanligini ham isti’foda
etishi bilan birga o‘z dunyoqarashini yoqlab chiqadi. Ishq masalasi ko‘tarildimi,
demak, navbatdagi masala unga sodiqlikda ifoda etiladi. Ushbu g‘azalda ishqdagi
sodiqlik masalasi tadrijiy tarzda ichki qarama-qarshiliklar zaminida ishonarliroq
ifoda etilgan bo‘lib, ayni damda shoir ichki nidosi bo‘lib yangraydi:

Yarashgaydir, ajab, senga ajab nozu tamannolar,

Keturman, deb shitob etding, shitobing ichra men borman.

Yor oshiq holi bilan qiziqmaydi: oshiqning hajrdan yuzidagi “chashmi selobi” - ko‘z yoshi ma’shuqa uchun sharob, huzurga aylanadi. Ammo bu sharob, azob-uqubatlar ichida “lirik qahramon”ning ichki dunyosi, qalbi, orzu-armonlari mujassam. Uning barcha azoblari haqiqat, muhabbati esa bugungi kunda sarobga aylangan. Ishq-muhabbat dilda makon topadi, uy quradi, lekin uni asramaslik kulbaning, demakki, qalbning ham vayron bo‘lishiga olib keladi:

Yuzing hajri bilan oqqan labolab chashm selobin –

Ichurman, deb sharob etding, sharobing ichra men borman.

Umid uzgil, deding, oshiq, muhabbat rishtasin uzgum,

Uzurman, deb azob etding, azobing ichra men borman.

Qayon qoldi o‘shal so‘z kim, muhabbat ko‘shkini, ey yor,

Tuzurman, deb sarob etding, sarobing ichra men borman.

Dilimda qolgan ushbu har namanzil kulbai ishqni,

Buzurman, deb xarob etding, xarobing ichra men borman.

Muhabbatga oshno qalb o‘zi uchun yashamaydi, o‘zligidan kechadi. Bu inson butun qalbi bilan yashaydi, borlig‘i ham, umidi ham ishqdan iborat bo‘ladi. Albatta, bu kishi qalbini badbin o‘y-xayollardan tozalaydi, undan shubha-gumonlarni o‘chirib tashlab, qalbning yuksalishiga olib keladi. Valijon Qodirov “Hozirgi zamon o‘zbek g‘azallari poetikasining ayrim xususiyatlari” nomli nomzodlik dissertatsiyasida A.Oripov g‘azallari muvaffaqiyati sababini”... shoirning g‘azalga xos bo‘lgan poetik leksikani yaxshi o‘zlashtirganligi va his eta olishi”da ko‘radi. Shoirning “Noma” deb nomlangan g‘azalidagi bayt V.Qodirov tomonidan shunday sharhlangan:

Bag‘ritoshsan, xasta aylab, ham yiroq ketding nechun,

Tibda derlar: gohi dardga tosh davo, bir kelmading, —

misrasidan ma’shuqa oshiq uchun bag‘ritoshlik xislati bilan ham suyukli, ardoqli ekani ma’lum bo‘ladi. “Bag‘ritoshsan” so‘zi ma’shuqani sifatlovchi so‘z bo‘lishi bilan birga maqta’dan oldingi baytlarda murojaat qilinuvchi personaj vazifasini

ham bajargan”.¹

A.Oripov bilan suhbatda shoirning o‘zi lirik qahramoni holatini quyidagicha izohlaydi: “N.Sharopova:

Bag‘ritoshsan, xasta aylab, ham yiroq ketding nechun,

Tibda derlar: gohi dardga tosh davo, bir kelmading, —

baytiningizda irsoli masal san’atini qo‘llaganmisiz?” A.Oripov: Ibn Sino haqidagi “Hakim va ajal” nomli doston yozganman. “Tibbiyotda bir tosh bor, shuni kukun qilgin, ichsang, dardga davo”, - deydi Ibn Sino. Mineral toshlardan dori qilgan u kishi. Yoki chayonni qaynoq qozonda qizdirib, kukunidan dori qilgan. Qahramonim: Bag‘ritosh, o‘zing xasta qilding, uzoq ketding”, - deb g‘azalda aytadi. G‘azalni xohlagan tomondan tahlil qilish mumkin. Lekin uni birinchi galda his qilish kerak. G‘azal - odamning ruhiy komillikka intizorligi. Dunyoga real yondashishni Firdavsiydan, Hofizdan, ayniqsa, Navoiydan o‘rganish kerak”.

Demakki, bag‘ritosh va tosh so‘zlari baytdagi quyma ohangdorlikni ta’minlagani holda ham ma’shuqa tafsifini bergan, ham oshiq holatini ochishga yordam bergan. Ayni vaqtda qadimgi milliy shifo usullaridan ham darak bergan.

Yirik adabiyotshunos N.Shukurovning g‘azalni anglashdagi fikrlari quyidagicha: “G‘azal juda qadimiy shakl. Uni yangilash ba’zan mavzu, ba’zan mazmun, ba’zan qofiya, ba’zan radif, ba’zan san’atlar, tashbehlarning yangiligida namoyon bo‘ladi”.² Ushbu she’riy unsurlarning bugungi she’riyatimizdagi mohiyatini ochishda kamida ikki davr she’riyatini taqqoslash lozim. Quyida Navoiyning “Qog‘az” radifli, E.Vohidovning “Qalam” radifli g‘azallarining qiyosiy tahlilini keltirsak. Navoiyda “qog‘oz” obrazi lirik qahramonning ishqiy kechinmalarini yoritishda faol qatnashadi. Qahramon dardi shu maqomga yetganki, uni aks ettirgan qog‘oz shu’lalanmoqda. Taqdir ham oh-vohlardan hayron:

Emas g‘amimni yozar xatqa zarfishon qog‘az,

¹ Qodirov V.A. “Hozirgi zamon o‘zbek poetikasining ayrim xususiyatlari”. 1993.-B.87-88

² Shukurov N. “Menman ummon qaysi daryo teng bo‘lg‘ay men bilan”. S. Sirojiddinov zamondoshlari xotirasida. SamDCHTI nashr matbaa markazi. 2012.-B.20

*Ki shu'la chekti g'amimdin bitir zamon qog'az.
Sipehr davri bu sargashta ohidin bo'lmish,
Magar bu oh, tutun bo'lmish, osmon - qog'az.¹*

Qog'ozdagi bitikni muhrlab, labiga keltirgan mahalda bu qog'ozga jon bitadi. Yorning yuzi, labining vaslini keltirganda oshiq ko'z yoshlaridan qog'oz qonga belanadi:

*Tirilmisham bitigingdin qilurda muhr magar,
Labingga tegdiyu kelturdi tuhfa jon qog'az.
Uzoru la'li labing vasfini qachon yozdim,
Oqib ko'z yoshim gulrang bo'ldi qon qog'az.*

Uyga tuynukdan yorug'lik kirganidek, majruh ko'nglim maktubini yaramga yopsam, u ochildi. Ma'shuqa vasfi shunchalikki, farishta uni bitgani tiniq qog'oz topolmaydi.

*Ochildi xasta ko'ngul ruq'asin yaramga yopib,
Yorug' bo'lur emish uy bo'lsa tobadon qog'az.
Yozar farishta quyosh sahfasiga vasfingni,
Magarkim, ul falaki topmas obdon qog'az.*

Qahramon iztiroblarining shohidi bo'lgan ko'ngul sahifasini xotiralar dengizidan asrashni so'raydi, suvga tushgani hamon ulardan asar qolmaydi, zoye' ketadi. Xumorni qaytarish uchun soqiydan qullik bitimini so'raydi, biroq qog'ozning bu hujjat bilan ishi yo'q - u tez qaytib ketadi:

*Ko'ngul sahifasin asra xutur bahridin,
Ki suvga zoyi' o'lur tushsa nogahon qog'az.
Xumor daf'iga qulluq xatin tilar soqiy,
Navoiy, dema hujjat ketur ravon qog'az.*

Navoiyda an'anaviy ishq mavzusi qog'ozga arz holini yozishidan hamda qog'ozning qahramon iztiroblaridan qay ahvolga tushishini tasvirlash orqali aks etgan. **Qog'oz so'zi radif, zarafshon, zamon, osmon, jon, qon, tobadon, obdon.**

¹ Navoiy A. Qaro ko'zum.-T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1988.-B.218

dilsiton, nogahon, ravon soʻzlari qofiyani tashkil etgan. Jonlantirish, mubolagʻa, oʻxshatish sanʼatlari qoʻllangan. Ohning tutunga aylanishi, qogʻozning osmon qadar koʻtarilishi, koʻz yoshlarining qonga aylanishi, qogʻozning tuynukka oʻxshatilishi tashbehlari qahramon dardining ulugʻligidan darak bergan. U oddiy oshiq emas. U ishq bilan kasallangan. Uning dardi bedavo. Bu dard unga azaliy qismat. U bundan qochib ham qutulolmaydi.

E. Vohidovda ham mavzu anʼanaviy - ishq. Lekin mazmunni ochishda “qalam” dan foydalanilgan:

*Ulfatimdir sham yangligʻ kechalar tanho qalam,
Men ku sheʼr majnunidirman, sarvqad Laylo qalam”*

Lekin qahramon oʻzgacha oshiq - u sheʼriyat shaydosi. Unga ilhom tinchlik bermaydi. Natijada u tunlari ham bedor. Ulfati esa qalam. Oʻzini sheʼriyat majnuni hisoblagani sabab uning Laylosi - qalam. Chinakam ijodkorga qiyomatga qadar azoblanish ulfatdir. Bundan qutulishning chorasi yoʻq. Uning boshida qalam savdosi bor:

*Ahli sheʼrga to qiyomat ulfat oʻlmakdir azob,
Ne iloj etsin, boshida bor ekan savdo qalam.*

Qalamning timsoli sheʼr, tigʻ va haqdir. Uning boshini necha bor kessalar ham, u bir marta ham boshini egmadi. Shoirlik taqdirdir, uning umri insonlar, yor, diyor mehrini kuylab nihoyalanadi. Bu qismatdai shoir ham, uning qalami ham istisno emas:

*Rost, qalam timsoli sheʼr, timsoli tigʻ, timsoli haq,
Boshini ming kesdilar, bosh egmadi aslo qalam.
Yor diyor mehrini kuylab umrimiz boʻlgay ado,
Men na istisno erurman, sen namustasno qalam.*

Maqtaʼda shoir doimo haqiqatni kuylashni niyat qiladi. Qalami bilan davr yukini aritib, qalamiga ham hech qachon qaddini bukmaslikni soʻraydi:

*Yangrasin Erkin soʻzing, aslo tiling lol oʻlmasin,
Dast koʻtar davron yukini, etma qadding yo qalam.*

Ikkala gʻazalda ham insonga tinchlik bermaydigan, uni har narsaga duchor

qiladigan “ishq” mavzusi kuylangani holda ikkala ijodkorda bu “ishq” ning yuki o‘zgacha. Navoiyda oshiq iztiroblaridan qog‘oz turli holatga tushadi. Qahramon dilini ishq zabt etgan. U iztirob nimaligini his eta biladigan, uning og‘iriga ham, yengiliga ham ko‘nikadigan va yelkasidagi bu yukni, qanchalik og‘ir bo‘lsa ham, bir umr tashishga majbur. Uning iztiroblarini aks ettirgan qog‘oz ham behalovat. E.Vohidovda esa qalam uning o‘zidek behalovat, notinch. Uning ham qismati azoblanish, haqiqatni kuylash bilan birgalikda yo‘lidagi barcha qiyinchiliklarni qaddini tik tutgan holda, mardona yengib o‘tish. Ushbu g‘azalda ijodkor novatorligi mavzuning kengaytirganida ko‘rinadi. Yor ishq endilikda el, yurt ishq qadar o‘sgan. Qalam so‘zi radif sifatida olingan. Tanho, Laylo, savdo, aslo, mustasvo so‘zlari qofiyadosh bo‘lib kelgan. Shoir kashfiyoti qalamning ulfatga aylanganida, bu detalning Laylo, haq, tig‘, she‘rga o‘xshatilishida ko‘rinadi. Tilsiz, zabonsiz qalam haq kuychisiga aylanib, shoirni ming bir ko‘chalardan boshlab boruvchi mash‘alga aylanadi. Ikkala ijodkor g‘azalida ham shoirlar kundalik qurollari: qog‘oz va qalam detal qilib olingan. Navoiy “qog‘oz”ni, E.Vohidov “qalam”ni kundalik ashyodan “poetik detal” darajasiga olib chiqqan. Lekin davr ruhiyati masalasida ikki “poetik detal”ning yuki farqlanadi. Navoiydagi “qog‘oz” oshiq - ma‘shuqa kontrastida beriladi. E.Vohidovda "qalam" shoir va uning taqdiri kontrastida yoritilgan. Ijodkorlarning ikkisining qismati bir. Azaliy behalovatlik, umr mobaynida tinchlik bermaydigan hissiyotlardan azoblanish, Ikkala shoirda “biografik asos” va uni ifodalovchi “mafhum”¹lar asosli va atroflicha berilgan. Oshiq holati bevosita azaldan nomaga-qog‘ozga tushirilgani, ijodkor qismati esa uning qalamiga bog‘liqligi ikki lirik qahramonning tarjimai hol ko‘rsatkichlariga borib taqaladi.

Xulosa qilib aytganda g‘azal janrining bugungi kundagi o‘ziga xosliklarini, uning taraqqiyoti darajasini quyidagi holatlarda ko‘ramiz:

1 . Tasvir an’anaviy bo‘lgani holda g‘azalchilik tematikasi yangicha.

2.Lirik qahramon xarakteri uning ijtimoiy pozitsiyasi davrga mos holda namoyon bo‘lgan. Qahramon intim hayoti motivlari yangi davr taqozosi

¹ Ishoqov Y. Navoiy poetikasi.-T., “Fan”. 1983.-B.29

bilan ijtimoiy motivlarga aylangan.

3. Tematikaning gʻoyaviy asosi davr talabiga mos holda yoritilgan.

4. Lirikada gʻazalning asosiy mohiyati va anʻanaviy jozibasi saqlangan.

II. Bob Yangi davr gʻazalchiligi

2.1. Gʻazalnavislik anʻanalari. A.Oripov ijodi

Maʼlumki, turkiy tildagi mazmunan chuqur, shaklan mukammal gʻazallar Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy, Lutfiy kabi shoirlarimiz qalamiga mansubdir. Ayniqsa, Alisher Navoiyning gʻazal tarakqiyotidagi xizmatlari beqiyos. Navoiydan keyin yashab ijod etgan Bobur, Mashrab, Ogahiy kabi shoirlarimizning gʻazallari oʻzbek gʻazalchilik tarixidagi betakror hodisalardandir.¹

Yigirmanchi asr oʻzbek sheʼriyatida gʻazal yuqori bir oʻrinni ishgʻol qilmagan boʻlsa ham, adabiy jarayondan butunlay chetga chiqib qolmadi. Buning sabablaridan biri aruz yoʻlida ijod qilish ehtiyojining mavjudligi boʻlsa, ikkinchisi ishq mavzuining hamma davr kishilari uchun qiziqarli va maʼnaviy ahamiyatga molikligidir. Yetmishinchi yillarga kelib Erkin Vohidovning «Yoshlik devoni» misolida oʻzbek gʻazaliyotida oʻziga xos yangilanish sodir boʻlishining bir sababi ham ana shunda edi. Shuning uchun ham Erkin Vohidov devonning debochasida:

*Ey munaqqid, sen gʻazalni koʻhna deb kamsitmagil,
Sevgi ham Odam Atodin qolgan inson zotida².*

- deydi. Umuman, yetmishinchi yillardan sheʼriyatimizda ijobiy maʼnodagi gʻazalnavislik musobaqasi boshlandi desa xato boʻlmaydi. Bu fikrning dalili sifatida Jamol Kamol gʻazallarini eslatish mumkin. Bu davr va keyingi yillarda yaratilgan gʻazallarni tahlil va talqin qilish, albatta, bizning vazifamizga kirmaydi. Lekin, ularni eʼtibordan soqit qilib, Abdulla Oripov gʻazallariga baho berish ham toʻgʻri boʻlmaydi. Avvalo, shuni taʼkidlash kerakki, Abdulla Oripov uchun gʻazal janrida izchil bir tarzda qalam tebratish ijodiy maqsadga aylanmagan. Shuning uchun, uning gʻazallari barmoq bilan sanarli. Mavjud gʻazallar esa, Abdulla Oripovning gʻazalnavislik anʻanalarini puxta bilishi, ushbu shaklda ham boshqa shoirlarning sheʼrlariga oʻxshamaydigan, ayniqsa, oʻzining ruhi, ohangi tashbeh va timsollariga ega asarlar yaratishga qodirligini koʻrsatadi.

¹ Bu haqda qarang: Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. –Toshkent, 1961; Nosirov O. Oʻzbek adabiyotida gʻazal. – Toshkent, 1968; Orzibekov R. Oʻzbek adabiyotida gʻazal va musammat. - Toshkent, 1973.

² Vohidov E. Yoshlik dsvoni. - Toshkent, 1975. – 77 b.

A.Oripovning gʻazallari faqat mazmunda emas, balki shakliy poetik xususiyatlari bilan ham klassik janrlar nazariyasining asosiy talablariga javob bera biladi. Ularga xos bir xususiyatni alohida tilga olish joiz. Bu - ularning, asosan, ramal vaznida yozilgani hisoblanadi.

Ramal mumtoz adabiyotimizda turkiy tilning vazni, turkiy tilning tabiatiga nihoyatda muvofiq kelishi ilmda isbotlangan. Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Navoiy gʻazallarining katta qismi ayni shu vaznda ekanligi ham bu daʼvoning dalilidir. Abdulla Oripovning «Furqat nidosi», “Ketmokdaman”, “Bul ajab”, “Bu kun”, “Noma” singari gʻazallari ham ramalda bitilgan.

*Vahki ishq sahrosida qoldim beishq tanho
bu kun,
Chiqma Qays ohim bilan yonmokda bu sahro
bu kun.*

Ushbu gʻazalda ramalning rukni-foilotun sakkiz marta qoʻllanilgan. Faqat oxirgi ruknda u toʻliq holda emas, balki maqsur holatida uchraydi. Shunga koʻra bu vazn nomi - ramali musammani maqsurdir.

*Yaxshi qol ey, dilbarim dilda qadar ketmokdaman,
Ishq aro endi holim zeru-zabar ketmoqdaman¹.*

matlaʼli gʻazal ham, shuningdek, “Noma”, “Furqat nidosi” kabi gʻazallari ham shu vaznda yozilgan. Bularning hammasida anʼanaviy shakllarda yangi maʼno, yangi mazmun ifodalanishiga ham boy imkonlar berishini koʻrsatib turibdi.

Endi boshqa bir misolga murojaat qilaylik:

*Bul ajab xor kimsadin imdod soʻraydi xorlar,
Siz bemor koʻksiga bosh urmangiz, ey bemorlar.*

Bu satrlar ham ramal bahrida yozilgan, faqat u ramali musammani mahzufdir. Bir qarashda sodda koʻringan bu vazn shoirdan ancha mahorat talab qilganiga shubha yoʻq. Zero, uning paradigmasi:

- V - - - V - - - V - - - V -

¹ Ushbu gʻazal tahlili haqida qarang: V.Qodirov. Hozirgi zamon gʻazallari poetikasining ayrim xususiyatlari: Filol. fanlari nomzodi diss. ... avtoref. - Toshkent, 1993. - 15-16 b.

- V - - - V - - - V - - - V -

bo‘lib, o‘qilish ohangi foilotun foilotun foilotun foilundir. Agar sof bo‘g‘in nuqtai nazaridan hisoblab ko‘riladigan bo‘lsa, u har bir misrada o‘n beshtadan bo‘g‘in bo‘lishini taqozo etadi. Vaholanki, keltirilgan misolimizda har bir misrada o‘n to‘rt bo‘g‘in mavjud. Biroq A.Oripov aruzning o‘ziga xos xususiyatlarini nozik darajada o‘zlashtirgani uchun, alohida bir undoshning qisqa hijo vazifasini bajara olish imkoniyatidan o‘z o‘rnida foydalana olgan. Shunga ko‘ra oxirgi rukndagi «xorlar» va «morlar» ko‘rinishda ikki bo‘g‘in bo‘lsada, hijo nuqtai nazaridan uch qismdan iborat. Demak, ularning o‘qilishi xor-lar hamda mor-lar tarzida bo‘ladi. Xuddi shu holda vazn ham o‘z mukammalligiga erishadi.

Shoir yolg‘iz ramalda emas, balki hazajda ham o‘z mahoratini ko‘rsata bilgan. Xullas, A.Oripovning g‘azallarida mumtoz an‘ananing asosiy xususiyat va fazilatlari to‘lig‘icha namoyon bo‘lgan. Ammo, shoir faqat shu bilangina chegaralanib qolganida, badiiy kashfiyot haqida, an‘ana zaminida yuzaga kelgan yangi topildiklar haqida gapirib o‘tirish ortiqcha bo‘lardi. Buning ustiga mavjud adabiy muhit va real-tarixiy sharoitning ham mutlaqo boshqacha ekanligini unutmaslik lozim. «Harf o‘yin aylay desam, o‘zga erur imlo bugun» misrasi vositasidagi ta’kid ayni shu haqiqatni ifodalamoqda. Bugina emas, dadil aytish mumkinki, A.Oripov yigirmanchi asr oxirida aruzni barmoqqa yaqinlashtirgan yoki aruzda barmoq ohanglarining ham mujassamlashuvini ta’min eta olgan shoirdir. Gap shundaki, A.Oripov g‘azallarining ko‘pchiligi shubhasiz aruzda yozilgan bo‘lishiga qaramay ularni barmoq ohangi bilan ham o‘qish mumkin.

Yuqorida keltirilgan g‘azalni aruzning ramali musammani mahzuf vaznida yozilganini qayd qilgan edik. Bu vaznning rukn ko‘rinishlari so‘zlarning chegarasiga daxldor emasligi ham ma’lum. Vaholanki, turoqlarni so‘zlar chegarasi bilan uyg‘un bo‘lishini taqozo etadigan barmoq ham ayni shu g‘azalning boshidan oxirigacha tadbiq etilishi mumkin. Unda har bir misraning ko‘rinishi $7+7=14$ shakliga ega bo‘ladi. Masalan:

Bul ajab xor kimsadin (7)

Imdod so‘raydi xorlar, (7)

Siz bemor ko'ksiga bosh (7)

Urmangiz ey bemorlar. (7)

Bunday xususiyat, ayniqsa, «Ayon bo'lgay» g'azalida juda mukammal tarzda ko'zga tashlanadi. Bu g'azal hazaji musammani solim vaznida yozilgan:

A-gar yo-ring xi-ro met-sa sa-bo-lar-dan a - yon bo'l-gay,

V - - - V - - - V - - - V - - -

Ta-kal-lu-mi cha-man ber-gan sa-do-lar-dan ayon bo'l-gay.

V - - - V - - - V - - - V - - -

Agar bu g'azalni aruz emas, barmoqning talablari bilan tahlil qiladigan bo'lsak, u bu vaznning ham barcha talablariga to'lig'icha javob bera oladi. Ko'rinib turganiday she'riy misralar o'n olti bo'g'indan tashkil topmoqda. Ularni turoqlarga ajratsak, $4+4+4+4=16$ ko'rinishi hosil bo'ladi.

Agar yoring / xirom etsa, / $4+4=8$

Sabolardan / ayon bo'lgay, / $4+4=8$

yoki

Agar yoring / (4)

Xirom etsa, / (4)

Sabolardan / (4)

Ayon bo'lgay. / (4)

Professor B.To'xliyev «Qutadg'u bilig» vaznini o'rganganda Yusuf Xos Hojibning o'rni-o'rni bilan aruz hamda barmoq vaznlariga bir xilda uyg'un bo'lgan misralar ijod etganini ko'rsatib o'tgan edi.¹ Demak, an'ana qanchalik o'zining «temir qonunlari»ga ega bo'lmasin, yuksak iste'dod egalari uni «yangilash» lozim bo'lgan tomonlarini topa oladi. Bu, albatta, muhit, dunyoqarash, qiziqish doirasi hamda iste'dod darajasi bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Abdulla Oripovning ilk g'azallaridan biri:

To'lg'anib gul ochilur bog'larni

gulzor etgali

¹ To'xliyev B. Turkiy aruz // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 1998. - 3-son. Bu haqda yana qarang: To'xliyev B. Qutadg'u bilig poetikasi masalalari. «O'lmas obidalar» -Toshkent, 1989.

*Bog' sari dildor chiqar, oshiqclarin zor
etgali.*

deb boshlanadi. Bu gʻazal sof ishqiy mazmunga ega boʻlib, uning lirik qahramoni oʻtmish shoirlar tomonidan yaratilgan anʻanaviy oshiq obrazidan deyarli farq qilmaydi. Lekin unda oshiq taqdiriga yangicha qarash va uni juda samimiy tarzda talqin etish mayli aniq koʻzga tashlanib turadi. Shoir tashxis sanʼatidan foydalanib yozadi:

*Yolborib gullar dedi: - Kirma bu
boqqa ey, yigit
Bunga kirganlar kirurlar, sochini
qor etgali.*

Bundagi “gullarning” oshiqqa yolvorishi, oshiqning “sochini qor etgali» boqqa qadam qoʻyishi ham nihoyatda tabiiy chiqqan. Lekin, shoirning keyin yozilgan gʻazallariga nisbatan olinadigan boʻlsa, ushbu gʻazalning iztirob “yuki” bir muncha yengildir.

“Yozajakman” radifli gʻazalida esa, ahvol butunlay boshqacha. U shunday soʻzlar bilan boshlanadi:

*Doʻstlar, demangiz, men sheʼru doston
yozajakman.
Men sheʼru doston ichra bir afgʻon
yozajakman.*

Shu afgʻon, yaʼni figʻonu nola gʻazalning to oxirgi baytigacha kuchayib boradi. Ammo, bu nola-yu figʻonlar maʼno va mohiyat eʼtibori bilan bir-biriga oʻxshamaydi. Bular nimalardan iborat?

Birinchisi, lirik qahramon va boshqalar ahvolidagi ziddiyat:

*Hayrona boqur bu manim ahvolima
har kim,
Men ersam oʻzgalar ahvoliga hayron,
yozajakman.*

Ikkinchisi, shoir qalbining asosiy xususiyati, yaʼni hamisha vayronligi:

*Shoir diliga qilma havas, but esa
bag‘ring,
Shoir yuragin doimo vayron
yozajakman.*

Uchinchisi, “doimo vayron” yurakka “ul sho‘xi badxu”dan yetgan alam yuki
va uning natijasi:

*Soldi dilima qancha alam ul
sho‘xi badxo‘,
Bilmamki, oxir qay biri qurbon
yozajakman.*

To‘rtinchisi, “samovot eli” va ular orasidan eng yorqinini sharaflash:

*Osmon elining turfa-tuman yulduzi
ko‘pdir,
Xo‘bdur barisi, ravshani - cho‘lpon
yozajakman.*

Bu bayt ramziy ma’noga ega. Shuning uchun uni har kim har xil mazmunda tushunishi va talqin qilishi mumkin. “Ravshani-cho‘lpon” birovlar uchun go‘zal ma’shuqa bo‘lsa, yana birovlar uchun eng aziz bir insonni eslatadi. Bizningcha esa, shoir zahmatkash va ulug‘ elini nazarda tutgan.

Beshinchisi, she’rni tushunmaslik va go‘zallikka johilona munosabatdir:

*Sen she’rga qo‘ling cho‘zmagil ey,
johili nokas,
Bo‘lsangda xudo nomingni shayton
yozajakman.*

Oltinchisi, el-yurtning iqbol va istiqbolini orzu qilish:

*Boshingga agar qo‘nsa bu kun sharpai
iqbol,
Poyingga elim bosh urib qur‘on
yozajakman.*

Bu baytning birinchi misrasi she’riyat imkoniyatlaridan mohirona

foydalanish bilan bir qatorda shoirlik jur'atini ham aks ettiradi. Tasavvur qiling, hamma xalqning baxt-iqbol, erk va ozodligi haqida bong urib yurgan bir zamonda, «ey, elim, boshingga hali sharpai iqbol ham qo'ngani yo'q. Agar shu kun senga nasib aylasa, poyingga bosh urib, hatto ilohiy so'zlar biturmen» deyish oddiy ish emas edi. Keyingi baytda esa so'z o'yini tarzida bo'lsa hamki, qullik va erkinlikka ishora etilgan.

Quldir demangiz garchi nomi

Abdullo erurman,

Rasul ham emas, yo 'q hali unvon

yo'zajakman.

Sirtan qaralganda, qayd etilgan ma'nolar mantiqan tarqoq, bir-biriga bog'lanmaydiganga o'xshab ko'rinadi. Aslida esa, shoir ularni «yo'zajakman» radifi vositasida yagona maqsad atrofida birlashtiradi.

Abdulla Oripovning g'azal yozishdagi yutuklaridan bahs yuritganda, uning har bir g'azalida eng avvalo, yangi kayfiyat, ruhiy holat butunlay yangi haqiqat topishini alohida qayd etish lozim. Shuningdek, Abdulla Oripov g'azallarida yana bir xususiyat mavjudki, buni ham munosib baholash kerak. Bu xususiyat esa, juda chuqur, falsafiy, ijtimoiy ma'nolarni aks ettiruvchi baytlarning g'azal tarkibidan o'rin egallashidir. Shoirning «Ketmoqdaman» deb nomlangan g'azali mohiyat e'tibori bilan vidolashuv qo'shig'iga o'xshaydi. Lirik qahramon dunyoning hamma siru sinoatini tushungan, barchasining besamarligini anglagan oshiq - mutafakkir qiyofasida gavdalanadi:

Na ishonchu na quvonchu, na ko'nguldin

ochma gap,

Barchasidin ushbu kun yo 'qdur samar

ketmoqdaman.

G'azalning oxirgi baytida bu lirik qahramonning fikr va mushohada quvvati o'z taqdirini hamda alohida inson qismatini dunyo miqyosida qanday qimmatga ega ekanligini baholashda yana ham bo'rtib ko'rinadi:

Kelmagimdan dedilarki, bu

yigit koni zarar,
Ketmagimdan, oxir ayt, bormi
zarar ketmoqdaman.

Xullas, Abdulla Oripov uchun gʻazal yozish ham ichki ruhiy va fikriy ehtiyojdir. Shoir gʻazal shaklining imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanadi. Anʻanaviy maʼno va timsollarni zamonaviylashtiradi, zamondoshlarining koʻngliga yetib boradigan haqiqatlarini aks ettiradi. Bizningcha, uning «Vahki ishq sahrosida qoldim beishq tanho bu kun», «Bu ishq sirrin kitob etting, kitobing ichra men borman», «Agar yoring xirom etsa sabolardan ayon boʻlgʻay» misralari bilan boshlanadigan sheʼrlari ham gʻazalning eng yorqin namunalaridandir. Shoir ijodining Ushbu yoʻnalishdagi asosiy jihatlari yuqoridagilardan iborat. Ularni yakunlab shunday deyish mumkin:

Mumtoz adabiyotimizning oʻzak magʻizlaridan biri boʻlgan tasavvuf sheʼriyatidagi ilgʻor anʼanalar XXasrda ham, XXI asrda ham oʻziga xos shakl va shamoyillarda davom etmoqda. Buning eng yorqin misoli Abdulla Oripov ijodidir.

Tasavvufning taʼsiri degan paytda uning klassik variantdagi barcha usullarini, barcha mazmun qirralarini yaxlitligicha davom etishini tushunish biryoqlamalik boʻlar edi. Bunda Abdulla Oripovning shaxsiy individual uslubi, poetik olami, badiiy estetik qarashlariga asos va uygʻun jihatlar haqida gapirish oʻrinli boʻladi.

Haqiqiy ijodkorlar anʼana doirasida turib ham, kashfiyotlar qilishi mumkinligini Abdulla Oripov ijodi misolida yana bir marta tasdiqlanadi. Birgina gʻazal yoki ruboiy (toʻrtlik) shaklining oʻziyoq shoir uchun juda katta sinov maydoni boʻlganligini koʻrsatib oʻtish mumkin. Ushbu anʻanaviy shakllar orqali ham shoir oʻz zamonasining eng dolzarb muammolarini yuksak badiiy shakllarda ifodalab bera olgan. Buning ustiga bu ifodalarning yangi, ohori toʻkilmagan tarzdgai koʻrinishi mazkur sheʼriy shakllarda ham yangicha mazmun va jarang bagʻishlagan. Qisqacha qilib aytganda, haqiqiy isteʼdod uchun har qanday holatda ham oʻzligini koʻrsatish, oʻzining shaxsiy “men”ini namoyon qilish mahoratning oliy talabi, shu talabga javob berganligi uchun ham bunday asarlar oʻquvchilar qalbiga yaqin va ardoqli boʻlib qolaveradi.

Bob bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Abdulla Oripov axloqiy-ma'rifiy qarashlarining badiiy ifodasida Alisher Navoiyning ijodiy tajribasini o'rganish keng imkoniyatlarni ochib bergan. Bu narsa faqat Abdulla Oripovning tasavvuf bilan bog'liq badiiy-estetik qarashlarining paydo bo'lishi va rivojlanishida Alisher Navoiy (boshqa mumtoz adabiyot vakillari) asarlarining o'rni va ahamiyatini ko'rsatish jihatidagina emas, balki o'zbek she'riyatining XX asrning 70-yillaridan boshlab hozirgacha bo'lgan davrdagi rivojlanish tendensiyalarini belgilashga ham imkon beradi.

2. Mumtoz she'riyatdagi lirik janr va tasviriy vositalardan foydalanish oddiy bir ish emas, albatta. Buning uchun ham o'tkir did, yuksak saviya, eng muhimi, mahorat zarurdir. Abdulla Oripovning g'azal va to'rtliklarini o'qigan kishi bu gapning to'g'riligiga to'la ishonadi.

3. Abdulla Oripov g'azal janrida ham ibratli yutuqlarga erisha olgan shoirdir.

90 yillar o‘zbek she’riyatida g‘azal janri taraqqiyoti.

Mustaqillik sharoitida ma’naviy-ma’rifiy hayot katta o‘zgarishlarga uchradi. Badiiy adabiyotga qarash tamoyillari o‘zgardi. O‘zbek she’riyatida 80-yillargacha qaror topgan an’analar bu davrga kelib barcha tomonidan bir xilda qabul qilinmaydigan, rad etiladigan yoki tahrir etiladigan bo‘ldi. Masalan, G‘ulom Mirzo o‘z she’rini (g‘ayri’anaviy tajribalar) deyarli so‘zlarning omonimik xususiyatidan foydalanish asosida quradi. Tinish belgilariga ularning punktatsion funksiyasidan tashqari vazifalar ham yuklaydi. Rustam Musurmon she’riyatida esa poeziya tili oldinlari uchramaydigan sheva leksikasi va og‘zaki nutq unsurlari bilan boyidi. Shoir tovushlarni orttirish, cho‘zish, juftlash yoki so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratib tashlash orqali she’riy ohang hosil qilishga erishadi. Faxriyor ijodida amfiboliyalar (iboraning kamida ikki ma’noda kelishi), ruhiy kechinma tasvirini istiora, metonimiya singari she’riy, san’at va ramzlarda berish, so‘zlarning oxirgi bo‘g‘inini turlash orqali shakliy o‘zgachalikka erishish kuzatiladi. Shuning Faxriyor so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalarning imkoniyatlarida keng foydalaniladi.

Bahrom Ro‘zimuhammad she’rlarida kayfiyatning shaklini chizishga bo‘lgan ishtiyoq kuchlilik qilsa, Z.Mirzaeva ijodida tasavvufona kuzatishlar ustunlik qilish seziladi.

90-yillar she’riyatida ramzlar tili bilan so‘zlash biror so‘z yoki so‘z birikmasini ko‘chma ma’noda qo‘llash, aniq predmetga shartli belgi yuklashdan ko‘ra, tagdor ramziylik imkoniyatlaridan foydalanishga ko‘proq e’tibor berildi. 90-yillardagi barcha o‘zbek shoirlari olam va odam munosabatini aks ettirish, ruhiyatning obyektiv borliqqa munosabatni ifodalash, siyratdagi kechinmalarni badiiy tasvirlash jarayonida milliy badiiy an’analar imkoniyatidan keng foydalanildi.

90-yillar she’riyatida ijtimoiy, siyosiy, falsafiy vazifalar yuklatilgan asarlar kamroq uchraydi.

Bir vaqtlar E.Vohidov va A.Oripov ijodida qat’iy amal qilingan teng

hijolikka 90-yillar she'riyati vakillari unchalik rioya etmaganliklari kuzatiladi.

Chunki bu davrga kelib she'rning shakl bilan bog'liq izlanishlari vazn, qofiya, janrlarga murojaatdagi kabi hijolar borasida ham erkin yo'l tutishni talab etadi.

90-yillar she'riyatida mumtoz nazmning chiston, ruboiy, fard va g'azal singari janrlari bilan bir qatorda, tatabbu'larda ham shoirlar o'zlariga xos asarlar yarata oldilar. M.B.Ro'zimuhammad ijodida "Qur'onga tatabbu", "Frants Kafkaga tatabbu" tarzida kelsa, G'.Mirzoda "Mashrabona" shaklida, Faxriyorda "Rumiyona", U.Azimda "Baxshiyona".

Rustam Musulmon she'riyati tili og'zaki nutq, sheva leksikasi bilan boyitilgan. Shoir tovushlarni ortitirish, cho'zish, harflarni juftlash yoki so'zlarni bo'g'inlarga ajratish orqali badiiy matnga joziba bag'ishlaydi.

Kuy-la-gimm-ga qarang yo'l ta-ram-ta-ram

Ming-ta rang rang-ba-rang gul ta-ram taram

"Xirgoyi" deb nomlangan bu she'r xirgoyi o'qish kerak.

Mumtoz she'riyat yo'lida shakliy izlanishlar qilishga urinish kuzatiladi. Isroil Subhoniyning quyidagi murabba'si badiiy kashfiyotlikdan ko'ra original topilma sifatida e'tiborni tortadi.

Yuzing	goho	oy	misoli
goho	mutlaq	qiyosi	Yo'q
Oy	qiyosi	kun	adosi
misoli	yo'q	adasi	Yo'q

vertikal-gorizontal

I.Subhoniyni a-b-a-b tarzida qofiyalangan bu murabba'sini shakliy topilma bo'lib qolishini istagan va bu istagini mahorat bilan amalga oshirgan. Aslida bunday she'riy injaliklar mumtoz shoiramizda azaldan bo'lgan Ogahiy ijodida uchraydi

Ul sho'xki	ochildi	xatu	Ruxsori
ochildi	riyohinda	yuzi	Gulnori
xatu	yuzi	besabru qarori	Manman
ruxsori	gulnori	Manman	zori

Shoir bu she'ning musoviyat taraf ayn

(Ikki yoqlama) deb nomlaydi.

E'tibor qilgan kishi zamonaviy o'zbek she'riyatida shiddat bilan qisqalikka intilish jarayoni borayotganini ko'radi. Anvar Obidjon uchchanoqlar yaratdi. Azim Suyun to'rt qatordan ortiqrog'u besh qatordan kamroq bo'lgan qayirma janriga asos soldi. Tohir Qahhor, Faxriyor, Ulug'bek hamdam, Tursun Ali kabi shoirlar ikkilik hatto birlik she'rlar yozishyapti. Bu ham shunchaki, tasodif yoki badiiylilikda ketidan quvish bo'lmay, chuqur ichki mantiqqa ega bo'lib, milliy she'riyatda ma'no tig'izlanib, shakl mukammallashib borayotganini ko'rsatadi.

90-yillar she'riyatidagi uslubiy izlanishlarni shartli tarzda quyidagicha tasniflash mumkin.

- 1.Xalqona ruhdagi uslubiy izlanishlar.
- 2.Mumtoz lirika yo'nalishidagi uslubiy izlanishlar.
- 3.Modern yo'nalishidagi uslubiy izlanishlar.

O'zbek she'riyatida mumtoz lirika yo'nalishida, g'azalchilik an'analariga e'tibor kuchayganligini guvohi bo'lish mumkin.

Mumtoz o'zbek she'riyatining go'zal namunalari – Lutfiy, Navoiy, Fuzuliy, Mashrab, Ogahiy g'azallarini sevib o'qib, ustozlar san'ati sirlarini bilishga intilgan, Sharq mumtoz she'riyati namunalarini mohirona o'zlashtirishga harakat qilgan, E.Vohidov, J.Kamol, A.Oripov Jumaniyoz Jabborov, S.Sayyid kabi shoirlar aruz vaznida ham yaxshi g'azallar yozdi.

Ma'lumki, XX asrning 30-50-yillarida o'zbek she'riyatining ko'p asrlik she'r sistemasi aruzga biroz kamsitilganday munosabatda bo'lindi. Aruz zamon,

davr ruhini, zamonaviy lirik qahramon olamini yoritishga ojizlik qiladi, degan fikrlar aytiladi. Bir tomondan, bu gap haqday tuyuladi. Chunki Oktabr to‘ntarishi, fuqarolar urushi, kolxozlashtirish davrlarida tilimizga xorijdan, xususan, Yevropadan shunchalar ko‘p yangi siyosiy so‘zlar kirib keldiki, ular mumtoz adabiyotimizning nafosatini bera olmas edi. Ular siyosiylashgan so‘zlar edi. Biroq 60-yillarga kelib aruzga munosabat o‘zgara boshladi. Uning o‘zbek adabiyoti, she‘riyatidagi o‘rni tiklanibgina qolmay, E.Vohidov, J.Kamol kabi shoirlar ijodida yuksak bosqichga ko‘tarildi. Aruzning zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi nafosati, o‘ziga xos badiiy-estetik ahamiyatini namoyish qilishda Jumaniyoz Jabborovning ham xizmatlari katta. «Aruz she‘riyatimizning go‘zal vazni, musiqasi, san’ati, – deydi shoir. – Uni yanada sayratish mumkin. Gap – aruzda qanday ijod eta olish ustida. Uning imkoniyatlari beqiyos. Aruz vaznida chiroyli, zamonaviy namunalar yaratildi. Uning ochilmagan qirralari yanada ko‘p. Faqat qofiya va radifning chegaralangan sirtmog‘idan yulqinib chiqa bilmoq kerak”¹.

Aruz juda murakkab san’at. Shu bois mumtoz adabiyotshunoslikda poetika masalalari “ilmi aruz”, “ilmi qofiya”, “ilmi bade” kabi tarkibiy qismlardan tashkil topgan. Mumtoz adabiyotimizdagi bu masalalar adabiyotshunos olimlar tomonidan jiddiy o‘rganilgani uchun ularga alohida to‘xtalishga zarurat yo‘q. Biz faqat mavzu nuqtai nazaridan J.Jabborov she‘riyatidagi aruz vaznida yozilgan namunalarda estetik ideal va poetik tasvir masalasiga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

¹ Jabborov J. Yulduzlarda xayolim. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, Jabborov J. Yulduzlarda xayolim. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi 2006. – B.155.

Aruz haqida soʻzlar ekan, shoir “qofiya va radifning chegaralangan sirtmogʻi”ni alohida taʼkidlaydi. Bu bilan shoir aruz ijodkorni cheklaydi demoqchi emas. Barmoq vaznida yozilgan sheʼrlar ham shakliy va maʼno jihatidan ritm, turoq, band, qofiyalarning maʼlum bir tartibini talab qiladi va har qanday sheʼriyatning oʻziga xos “sirtmogʻi” bor. Masalan, shoir sonet yozmoqchi ekan, mantiqiy-hissiy fikrlashdan tashqari, qofiya va bandlarning qoidasiga ham rioya qilishi zarur. Bu fikr gʻazal, tuyuq, muxammas, ruboiy, masnaviy – mumtoz adabiyotimizning barcha janrlariga taalluqli qonun-qoidadir.

Bizningcha, shoir sirtmoq deganda ana shunday nazariy qoidalarni nazarda tutadi. Oʻrtamiyona ijodkor mavjud qofiyalar va radiflar sirtmogʻidan chiqib keta olmaydi, yaʼni oʻzi birorta yangi qofiya va radifni kashf etolmaslikdan tashqari, yangi poetik fikr, original poetik tasvirni bera olmaydi. Talantli shoir esa mavjud qofiya va radiflar tizimiga yangilarini qoʻshadi, poetik ifodani boyitadi. Aytish mumkinki, J.Jabborov aruz vaznida yozgan sheʼrlarida ana shunday imkoniyatlarini namoyish qildi. Bu jihatdan uning Alisher Navoiy gʻazaliga tatabbusi xarakterlidir. Shoir Navoiyning mashhur «El netib topgay menikim, men oʻzimni topmasam» misrasi vositasida maʼlum darajada badiiy-estetik prinsiplarini, yashashdan maqsadini, demak, lirik qahramonining oʻziga xos olamini bayon etadi:

Men nechuk shoir boʻlurman, oʻz soʻzimni topmasam,

Oʻz soʻzim birlan demakim, oʻz yuzimni topmasam.

Shoir oʻz soʻziga, oʻz ovozigaga ega boʻlishi kerak, bu uning maʼnaviy adabiy qiyofasini, yaʼni shoir sifatidagi shaxsiyatini belgilaydi.

Agar bu gʻazal Navoiy darajasida desak, mubolagʻa boʻladi. Bu yerda muhimi shundaki, shoir Navoiy gʻazaliga murojaat orqali oʻz qarashini, shaxsini poetik ifodalaydi va oʻquvchini yana ulugʻ shoir huzuriga yetaklaydi. Zotan, oʻtmish buyuklariga murojaat qilishning ham asosiy ahamiyati shunda. J.Jabborov hayotda bagʻoyat kamtar inson boʻlgani uchun, lirik qahramoni tabiatida ana shu fazilat tipik namoyon boʻladi. J.Jabborov Alisher Navoiyni komil inson, ideal shoir sifatida koʻradi. Oʻzi ham Navoiydek boʻlishni istaydi – bu shoirning orzusi, ammo

uning shuhratini da'vo qilmaydi. Bu real hayotiy haqiqatdir. Shu jihatdan yetmishdan oshib, o'ziga xos donishmandlikka erishgan J.Jabborovning "Hayrat olami" xotiralari so'ngida aytgan fikrlarini keltirish o'rinlidir: "Bolaligim, hamqishloqlarim, o'qish yillarim, ustozlarim, ko'rgan-kechirganlarim haqidagi taassurotlarimni nihoyalar ekanman, kamtarona hayotimni hech kimga ibrat yoki o'rnak sifatida ko'rsatishni niyat etmaganman yoki ulug'lar nomiga suyakalib, obro' orttirish fikridan ham olisman"¹.

Shoir "Ajab dunyo – sevgi dunyosi", ikki jildli "Saylanma"ga o'zining aruz vaznida yozgan bir qancha g'azallarini, tuyuqlari, muxammaslarini ham kiritgan. Ba'zan g'azal va muxammaslarida Niyoz taxallusini qo'llaydi. Shoir "O'zbekiston, og'ushingda nurli bayramdir bugun", "Xalqim safarbardir yana", "Navbahor (Muqimiyga muxammas)", "Keltiring", "Davramiz gulgun", "Bilmadim, qaydan ko'ngilda g'am bugun" va boshqa g'azallarida hayot nafosati, tabiat va insonlar go'zalligini, lirik qahramon ruhidagi jo'shqin his-tuyg'ularni, shodlik va qayg'ularni ravon va rangin ohanglarda kuylashga erishdi. Uning aruzdagi she'rlari ham zamon, Vatan, xalq ruhiyatiga mos. Shoirning aruzdagi asarlari estetik idealiga ko'ra barmoq vaznida yozilgan she'rlaridan keskin farq qilmaydi. Farqi ifoda tarzida, ikki xil vazn tizimida yozilganidadir. Shoirning aruzdagi asarlari orasida poetik jihatdan yetuk va rang-baranglari ko'p. Ayni chog'da ayrim nuqsonlar ham yo'q emas:

Sahnada Zeboni ko'ring, Sho'xi diloni ko'ring.

Jon ofati bo'lmasa-chi, Nozu tamannoni ko'ring.

Oshig'ini o'tga yoqar, Rahmi yo'q oshnoni ko'ring.

*Tohiru Farhodi qani, Shirinu Zuhroni ko'ring...*²

Bu shoirning yoshlikda, shoir sifatida g'o'r payti yozilgan asar. Undagi qofiya, vazn ham uni hozirgi "yengil" qo'shiqlar kasalidan asrab qololmagan. Бирок бу каби асарлар ҳам шоир ижодининг эстетик тадрижини вақт ўтиши билан бadiiy mahorati yuksalib borganini ko'rsatishda muhimdir. Endi uning

¹ Jabborov J. Yulduzlarda xayolim. – Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2006. – B.170.

² Jabborov J. Ajab dunyo – sevgi dunyosi. –Toshkent: Adabiyot va san'at, 1996. – B. 268.

Navoiy g'azaliga muxammasidan bir bandga nazar tashlaylik:

*Niyoz aytdim o'zimga: yor duosin ziyod etkim,
Bo'lib yonida parvona, sadoqat, e'tiqod etkim,
Tilab sog'liqlarini, ilgin o'pib, qutlug' murod etkim,
Navoiy yorni topsang salomat, xayrobod etkim,
Yana zaf etsa nogoh, qolmagay joning azob ichra¹.*

Bu ikki misolni qiyoslashning o'ziyoq J.Jabborovning aruzda ham qanday ijodiy yo'lni bosib o'tgani, shoir kamolotiga oddiy bir misol bo'la oladi.

Ijodkor shaxsi hayot haqiqatini, uning lirik qahramoni badiiy haqiqatni, ya'ni shoirning orzu-umidlarini, ideallarini ham poetik ifoda etadi.

Sirojiddin Sayyid o'zbek she'riyatida ulug' salaflarga bo'lgan yorqin ehtirom bilan o'z ijodini davom ettirib kelyapti. Ahmad Yassaviy, Navoiy, Maxtumquli, Bobur, Mashrab, Furqat kabi ijodkorlarga bag'ishlangan she'rlar, ular g'azallariga bog'langan muxammaslar ham buni tasdiqlaydi.

Aruzda yozish oson emas. Buning uchun so'zni nozik his etish, uni mahorat bilan saralay olish, muayyan mezonga sola bilish zarur. Hatto bular ham kifoya qilmaydi. Buning uchun mumtoz adabiyot mutolaasidan lazzat olmoq, ya'ni ilmi aruz, ilmi bade', ilmi qofiya sirlarini egallamoq talab etiladi. Sirojiddin Sayyid juda ko'p zamonlardan shu kabi fazilatlar sohibi ekani, bilganlarini amaliyotda mahorat bilan qo'llay olishi bilan alohida ajralib turadi. Bugungi shoirlardan ko'pchiligi bunday salohiyatga ega emas. Zahiriddin Muhammad Boburning hazaji musammani solim vaznida yozilgan quyidagi mashhur g'azaliga bog'langan taxmis shoirning yuksak mahoratiga yana bir dalildir.

*Bulut ermas, ko'k uzra tarqagan ko'ngil gumonidur,
Gumon qilmak bu damda begumon dilning ziyonidur,
Ko'kargan xor ila xaslar tiriklikning nishonidur,
Bahor ayyomidur dag'i yigitlikning avonidur,
Ketur soqiy, sharobi nobkim, ishrat zamonidur.*

Jabborov J. Yulduzlarda xayolim. – Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2006. – B.329.

Taxmis vazn jihatidan ham, mazmun e'tibori jihatidan ham Bobur g'azaliga mutanosibdir.

Sirojiddin Sayyid Navoiyni ko'p o'qiydi. uning she'rlarida ulug' Navoiydan, mumtoz she'riyatimizdan bahramandlik ta'siri sezilib turadi.

*Chaman ichra o'zi ham bir
atirgulday bo'lib qolgay,
Dilimning qoniga bulbul
qanotin gar bulab qo'ysa...
Menga xanjar bilan shamshir
tig'iga hargiz hojat yo'q,
Uzun mijgonlarni gar
nigorim bir qadam qo'ysa.*

Bu baytlarda mumtoz adabiyotimizga xos joziba ufurib turibdi.

Sirojiddin Sayyid she'rlaridan birini "Navoiyni o'qish" deb nomlagan. Uning fikricha, "Har bir kalla, har bir bosh jaholatdan qo'rqishi kerak. Har bir bola, har bir yosh Navoiyni o'qishi kerak". Navoiydek ulug'larni o'qimaslik, anglamaslik jaholatga olib kelishidan ogoh qilishni burch deb bilgan shoir "Har bir ota, har bir mo'ysafid Umr hikmatlarin ko'rsatib, Nafs arqonlarin qirqishi kerak", deya ta'kidlaydi.

Ulug' salaflar mahorat maktabidan o'rganish samarasi bo'lsa kerak, Sirojiddin Sayyid she'rlarida teran falsafiy fikrlarning betakror poetik ifodasi darajasidagi baytlar, bandlar anchagina. Hazrat Yassaviyning "Ko'ksimdagi zangorlarim ketarmukin" misrasiga tazmin o'laroq yaratilgan she'ri, hadislarining nazmiy talqinlari, xalqona hikmatlar singdirilgan asarlari buning isbotidir. Bir qarashdan sodda tuyuladigan, lekin o'quvchini umrning mazmuni, olam va odamning mohiyati haqida mushohada etishga undaydigan mana bu misralar hazrat Yassaviy hikmatlarini esga tushirishi bilan ham ahamiyatlidir.

Kelib ketmoq o'yin ermas, sayohat yo ziyorat,
Umr yo'li zahmatlaru mehnatlardan iborat.
Ko'ngillarga qurdingmi bir ko'prikmi yo imorat?

Qurganlaring o‘zingniki, qurmaganing gumondir.

Ko‘ngillarga imorat qurish, vayron dilni obod etish haqida ko‘p yozilgan. Sirojiddin Sayyidning ushbu bitiklari ularning birortasiga o‘xshamasligi bilan ham qimmatlidir.

Ifodaning ixchamligi va poetik jozibasi, hech bir zamonda eskirmaydigan mavzularning ohorli talqini, kutilmagan go‘zal tashbehtar qo‘llay olish – Sirojiddin Sayyid she‘riyatiga xos xususiyatidir. Uning uchun she‘riyat “Vositai joh” emas. Shoirning o‘z e’tiroficha, “Olamda eng og‘ir - So‘z yo‘lidir”. Bu yo‘ldan yurish oson emas. “G‘afur G‘ulom siyohdoniga” she‘rida betakror ifodalanganidek:

Ulug‘ shoirlarning qalbi siyohdon bo‘lgan,

Yozsa yurak qoni bilan yozgan, siyoh qon bo‘lgan.

Sirojiddin Sayyid ana shu sermashaqqat, “No‘shi bir bo‘lsa, nishi ming, rohati bir bo‘lsa, tashvishi ming”(Ogahiy) yo‘lning sabrli yo‘lchilaridandir. Chinakam she‘riyatga tashna qalblar malhami bo‘lgan she‘rlari shoirdan mudom benazir asarlar kutishga umid uyg‘otadi.

Ushbu mavzu bo‘yicha xulosa qiladigan bo‘lsak, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Muqimiy kabi shoirlar ijodidan ta’sirlangan, shoirlar E.Vohidov, A.Oripov, Jumaniyoz Jabborov, S.Sayyid aruz vaznining masnaviy, tuyuq, g‘azal, muxammas janrlarida ham barakali ijod qildilar.

II BOB BO‘YICHA XULOSALAR.

1. 90 yillar o‘zbek she‘riyatida ijod qilgan shoirlarning aruzdagi she‘rlari bilan barmoqdagi asarlari shakl, vazn e‘tiboridan farqlanadi; obrazli fikrlash, falsafiylik jihatidan umumiylik kasb etadi.

2. G‘azallarning mavzu yo‘nalishi va tuzilishiga ko‘ra turlari: Keyingi davrlarda g‘azalning mavzu yo‘nalishi kengayib borgan.: Shu tariqa, g‘azal mavzusi insonning keng, intim tuyg‘ulari bilan birga ijtimoiy-hayot muammolarini ham qamrab oladigan bo‘ldi.

3. Aruz bugungi davr she‘riyatida yetakchi o‘rinni egallamasa ham, kitobxon ehtiyojiga javob bera oladigan, iste‘dodli shoirlar tomonidan qo‘llanilayotgan adabiy vosita.

XULOSA

O'tgan asr boshlarida – hayotdagi ijtimoiy o'zgarishlar tufayli Yevropa va rus lirikasi janrlarning adabiyotimizga kirib kelishiga yo'l ochildi. Xorijiy janr o'qish yo'li bilan, to'g'ridan-to'g'ri andoza olish va tarjima qilish qilish orqali kirib keldi. Demak, har bir davr va adabiy jarayonning o'z janrlar tarkibi bo'ladi. Bunday xususiyat har bir katta-kichik shoir ijodi uchun ham xos.

Janr adabiy jarayonda quyidagi olti xil holatni boshidan kechiradi:

An'anaviylik;

Boshqa xalqdan o'tish;

Yangidan tug'ilish;

Eski janrning goho "o'lishi";

Janrning lirik belgilariga ega yoki ega bo'lmaslik;

Janrlikka intilayotgan she'rlarning mavjudligi;

1. Yangi davr she'riyatida g'azalchilik an'analari Habibiy, Charxiy, Chustiy, E.Vohidov, J.Kamol kabi o'nlab shoirlarimiz tomonidan muvaffaqiyatli davom ettirildiki, g'azalni hozirgi she'riyatda ham nisbatan faol bo'lgan janrlardan sanash uchun yetarli asos bor.

2. 60-yillarga kelib aruzga munosabat o'zgara boshladi. Uning o'zbek adabiyoti, she'riyatidagi o'rni tiklanibgina qolmay, E.Vohidov, J.Kamol A.Oripov, J.Jabborov kabi shoirlar ijodida yuksak bosqichga ko'tarilgan.

3. E.Vohidovning mumtoz adabiyotning bugungi kunda yangilangan janri bo'lmish g'azaldagi merosi A.Oripovnikidan miqdor jihatidan salmoqliroq. Shoir bu janrga ko'p va xo'b murojaat etadi. A.Oripov ijodida g'azallar miqdori kam bo'lsa-da, shoir g'azal janriga oz va soz murojaat etadi. Ikki ijodkor ushbu janrda ham xaqiqiy iste'dod namunasini ko'rsata olgan.

4. 90 yillarga kelib gʻazallarning mavzu yoʻnalishi va tuzilishiga koʻra turlari: Keyingi davrlarda gʻazalning mavzu yoʻnalishi kengayib borgan. Shu tariqa, gʻazal mavzusi insonning keng, intim tuygʻulari bilan birga ijtimoiy-hayot muammolarini ham qamrab oladigan boʻldi.

5. Aruz bugungi davr sheʼriyatida yetakchi oʻrinni egallamasa ham, kitobxon ehtiyojiga javob bera oladigan, isteʼdodli shoirlar tomonidan qoʻllanilayotgan adabiy vosita.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI.

Siyosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T. O‘zbekiston, 2000.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. T. Ma’naviyat. 2008.
3. Karimov I.A. “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi”. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2012 yil, 20 yanvar soni.

Ilmiy adabiyotlar;

1. Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik / M.Nurmuhammedov tahriri ostida. 2-tom. – T.: Fan, 1979.
2. Adabiyotshunoslik lug‘ati.-Toshkent: “Akademnashr”. 2010.-B.100
3. Ishoqov Y. Navoiy poetikasi.-T.6 “Fan”. 1983.-B.35
4. Karimov N. O‘zbek adabiyotida janrlar tipologiyasi va uslublar rang-barangligi.-T.: “Fan”. 1983.-B 376
5. Qo‘shjonov M. Saylanma. 2 jildlik. 1-jild.-T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1982.-
6. Qahhor A. Asarlar. T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 6-tomlik. T. 6-B. 253
- I. G‘afurov. Yam-yashil daraxt.-T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti
7. A. Navoiy. Qaro ko‘zim.-T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1988.- B.-154
8. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. –Toshkent, 1961; Nosirov O. O‘zbek adabiyotida g‘azal. –Toshkent, 1968;
9. Orzibekov R. O‘zbek adabiyotida g‘azal va musammat. - Toshkent, 1973.
10. Qodirov V.A. “Hozirgi zamon o‘zbek poetikasining ayrim xususiyatlari”. 1993.-B.87-88
11. Shukurov N. “Menman ummon qaysi daryo teng bo‘lolg‘ay men bilan”. S. Sirojiddinov zamondoshlari xotirasida. SamDCHTI nashr matbaa markazi. 2012.-B.20
12. V.Qodirov. Hozirgi zamon g‘azallari poetikasining ayrim xususiyatlari:

Filol. fanlari nomzodi diss. ... avtoref. - Toshkent, 1993. - 15-16 b.

13. Hayitov A. 90-yillar sheʼriyatida anʼana va shakliy izlanishlar. «Oʻzbekiston va adabiyoti», 2004 yil, 4-son.

Badiiy adabiyotlar.

1. Jabborov J. Yulduzlarda xayolim. – Toshkent: Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi, 2006. – B.155

2. Jabborov J. Ajab dunyo – sevgi dunyosi. –Toshkent: Adabiyot va sanʼat, 1996. – B. 268.

3. Vohidov E. “Ishq savdosi”. Saylanma. T., “Sharq”. 2000. 4 tomlik. T.

4. Vohidov E. Yoshlik dsvoni. - Toshkent, 1975. – 77 b.

5. Oripov A. Adolat koʻzgusi. – T. Adolat, 2005. - B.400.

6. Oripov A. Sen bahorni sogʻinmadingmi? -T. Yozuvchi, 1991. 32- b.

7. Oripov A. Oʻzim haqimda . Yoshlik. -1992. -№ 7-8-b

8. Oripov A. (Sheʼrlar) . Xalq soʻzi. -1996. 27-dek.

9. Oripov A. Tanlangan asarlar. 1-tom. T. Adabiyot va sanʼat , 2000. 431-b

10. Oripov A. Tanlangan asarlar. 2-tom. T. Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 2001. 492-b

11. Oripov A. Tanlangan asarlar. 3-tom. T. Adabiyot va sanʼat, 2001. 382-b

12. Oripov A. Tanlangan asarlar. 4-tom. T. Adabiyot va sanʼat, 2001. 381- b

13. Orif A. Haj daftari. T. Murod firmasi . Mirzo Akbar nashr boʻlimi, 1992.

14. Oripov M. Ishqi majoziy va ishqi haqiqiy. Navoiynoma. Sirli olam. -1993.

15. Sirojiddin Sayyid. Soʻz yoʻli. 1-kitob. T. 2008.

16. Sirojiddin Sayyid. Soʻz yoʻli. 2-kitob. T. 2008.

17. Sirojiddin Sayyid. Yashasin yomgʻirlar. T. 2007.